

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI INGLIZ TILI BO`LIMI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Mavzu: Ingliz va o`zbek badiiy asarlarida jonlantirishning ekspressiv mohiyati. (E.L.Voynichning ``So`na`` va A.Cho`lponning ``Kecha va kunduz romanlari misolida).

Ilmiy rahbar:

F.f.n.dotsent: Qayumova M.S.

Magistrant:

Ochilova Nilufar

BUXORO-2015

Mundarija:

Kirish	1-4
I BOB. Badiiy asarlarda ekspressivlikni ifodalashda badiiy tasviriy vositalarning ahamiyati.	
1.1. Badiiy nutq ifodaviyligi haqida fikr-mulohazalar.....	5-11
1.2. Badiiy matn ta'sirchanligini kuchaytirishda badiiy tasvir vositalarining ahamiyati.....	11-23
II BOB. E.L.Voynichning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("So`na" romani misolida).	
2.1. E.L.Voynichning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va "So`na" romani misolidagi lisoniy xususiyatlar tahlili.....	24-32
2.2. E.L.Voynichning ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("So`na" romani misolida).....	32-41
III BOB. A.Cho`lponning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("Kecha va kunduz" romani misolida).	
3.1. A.Cho`lponning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va "Kecha va kunduz" romanidagi lisoniy xususiyatlar tahlili.....	41-64
3.2. A.Cho`lponning ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("Kecha va kunduz" romani misolida)..	64-73
3.3. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida jonlantirish badiiy vositasining qiyosiy tahlili. ("So`na" va "Kecha va kunduz" romani misolida).....	74-77
Xulosa	78-79
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	80-82

KIRISH

Ma'lumki yozuvchining san'ati uning olg'a surayotgan g'oyasini o'quvchilarga yetkaza oladigan uslubi bilan belgilanadi. Bunda asar tili muhim o'rin egallaydi. Til o'sha g'oyani talqin etishda iboralarning siqiq, silliq bo'lishi, mazmunning esa keng va chuqur, hayotiy bo'lishi, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Yozuvchi o'z asarlarining kitobxonga ta'sir etishi va uni voqea ichiga olib kirish uchun ijodiy kuchi bilan bilimini ayamaydi. Satrlarda jummalarda ijodiy mehnat qiladi, natijada o'z romanlarining g'oyaviy va badiiy yuksak bo'lishiga erishadi.

Bunday yozuvchining tili aniq, tasviriy va emotsionaldir. Unda ohori tushgan iboralar soni iloji boricha cheklangan bo'lib, muallif til ustida qunt bilan qayta-qayta ishlaydi. Mana shunday ijodiy faoliyat jarayonida yangi-yangi o'xshatish, metafora, aforizm va jonlantirish kabi uslubiy vositalardan foydalanadi va romandagi ekspressivlik tabiiy tus oladi hamda kitobxonni o'ziga mahliyo etadi.

Bunday yutuqqa erishgan muallif kishini hayratda qoldiradigan obrazlar yaratadiki, bular kishi tasavvurida o'sha voqea tasviri yoki personajlarning o'ziga xosligini yaqqol chizib qo'yadi. Shu bilan ko'plab o'rinli ishlatilgan idioma va idiomatik iboralar hamda ko'plab uslubiy vositalar roman tilining mohiyatiga milliy kolorit va badiiy ta'sirchanlik beradi.

Ma'lum asarning badiiy tilini o'rganishda uning mayda-chuyda tomonlari alohida o'rin tutadi. So'z san'tida berilmoqchi bo'lgan fikrning chuqur, ta'sirchan va badiiy bo'lishi uchun so'zlarni o'z o'rniga qo'yish ko'p mehnat, qunt talab qiladi.

So'z san'atida so'zlarning o'rinli va mos, o'quvchiga yetuvchan bo'lishi uchun muallif o'zining barcha iqtidorini sarf etadi, katta ijodiy mehnat qiladi.

Soʻz tanlash, uslubiy vositalardan ustalik bilan foydalanish barcha holat va harakatlarni aniqlaydigan, yaqqol ifoda etiladigan, ommaga yetib bora oladigan soʻzlarni qidirishda koʻrinadi.

Ishning dolzarbligi. Davlatimizning iqtisodiyoti, fan va texnologiyasining rivojlangan xorijiy mamlakatlar darajasiga koʻtarilish arafasida turganligi yosh mutaxassislarimizdan jamiyatimizning barcha sohalariga tegishli ingliz tilida yozilgan matnlarni oʻqib, tushunishlarini talab etadi.

Yosh mutaxassislarimizning xorijiy tilda yozilgan badiiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan matnlarni oʻqiy olishlari davr taqozosidir. Buning uchun yosh mutaxassislarimiz ingliz xalqining urf-odatlarini, ularning madaniyati, tarixi bilan tanish boʻlishlari lozim. Shundagina mutaxassis chet tilida yozilgan matnlarni chuqur va toʻgʻri tushuna oladi. Bu esa chet tilida yozilgan matndagi uslubni, soʻzlarning polisemantikligini, muallifning nima maqsadda soʻzlarning koʻchma maʼnolaridan foydalanayotganligini tushuna olishlarini talab etadi. Shu kabi maqsadlarni amalga oshirish mazkur mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Ishning yangiligi. Ingliz va oʻzbek tillarida maʼno koʻchishning turlaridan biri boʻlgan jonlantirish uslubiy vositasi koʻp tahlil etilgan. Jonlantirish uslubiy vositasining ekspressivlikni ifodalashdagi mohiyati, turlari va vazifalari haqida ingliz va oʻzbek nazariy va amaliy adabiyotlarida batafsil fikrlar yoritilgan.

Mazkur ishning mavjud boʻlgan adabiyotlardan, yoritilgan fikr-mulohazalardan farqi va yangiligi shundaki, bunda ingliz yozuvchisi E.L.Voynichning “The Gadfly” romanida hamda oʻzbek yozuvchisi A.Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida ekspressivlikni ifodalashdagi muallif mahorati tahlil etiladi.

Ishning maqsadi. E.L.Voynichning “The Gadfly” romanida hamda oʻzbek yozuvchisi A.Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanlaridan jonlantirish uslubiy vositasi qoʻllangan misollarni tanlash, hamda bu misollar orqali muallifning badiiy matnda ekspressivlikni ifodalashdagi mahoratini namoyish etish mazkur ishning maqsadini tashkil etadi.

Ishning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni bajarishni talab etadi:

1. Badiiy nutqning ifodaviyligi haqidagi fikr-mulohazalar tahlili.
2. Ekspressivlikni ifodalovchi badiiy tasviriy vositalar tahlili.
3. O'rganilayotgan, ya'ni ingliz yozuvchisi E.L.Voynich va o'zbek yozuvchisi A.Cho'lponning tarjimai hollari.
4. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida ekspressivlikni ifodalash maqsadida ishlatilgan jonlantirish badiiy tasviriy vositasi qo'llangan misollarni tanlash.
5. Jonlantirish badiiy tasviriy vositasini badiiy matnni emotsionallashtirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llashdagi muallifning mahoratini namoyish etish.

Ishning nazariy ahamiyati. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi oliy o'quv yurtlarining xorijiy filologiya va o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalariga stilistika, matn tahlili, matn interpretatsiyasi kabi fanlardan malakaviy-bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi yozish uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati. Har qanday til o'rganuvchi til uslubini o'rganishi, yoki oliy o'quv yurtining ingliz va o'zbek filologiyasi bo'limida ta'lim olayotgan talaba stilistika, matn tahlili va matn interpretatsiyasi fanlaridan o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida mazkur ishdan foydalanishlari mumkin. Chunki ingliz tilida yozilgan matnni o'qiyotgan mutaxassis, ingliz xalqi uchun, masalan, sheep "qo'y", snake "ilon", hen "tovuq" kabi jonivorlarning ijobiy yoki salbiy xarakterga ega, yoki ega emasligini bilmay turib, yoki "the moon is winking from behind the clouds" (Oy bulutlar orqasidan mo'ralab chiqmoqda) gapida jonsiz "Oy" ning ekspressivlikni oshirish maqsadida jonlantirilishini sezmay turib, so'zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetmaydi. Shuning uchun so'zlarning ko'chma ma'nolarda ishlatilishi va ularning matndagi ekspressivlikni oshirishdagi mohiyatini anglab olish foydadan xoli emas.

Ishning metodi. Mazkur ish dialog, monolog, peyzaj tasviri asosida deskriptiv metod orqali tadqiq etildi.

Ishning tuzilishi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB

Badiiy asarlarda ekspressivlikni ifodalashda badiiy tasviriy vositalarning ahamiyati

1.1. Badiiy nutq ifodaviyligi haqida fikr-mulohazalar

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajralib alohida mustaqil fan sifatida tanilgan davrlardayoq til va nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma jihatdan ham til bilan nutq bir-biridan farqlanavermadi. Shuning uchun ham ko'pincha nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib kelindi. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida til va nutqni farqlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Til va nutq hodisalariga o'zaro farqlab yondashishni dastlab arab tilshunosligida, keyinchalik V.Gumboldt, A.Shteytal, Boduen – de Kurtene ta'limotlarida uchratamiz, lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo'llash F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir.

Lison (til) va nutqning farqlanishi tilga tizim sifatida yondashuv 20 asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikda mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tilga, xususan o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqardi, insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilar edi. Atamalarga esa bir ma'nolilik xosdir.

Lison deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holda keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisi tushuniladi.

Tilning bunday talqini uning psixo-fizik hodisa ekanligini u o'ziga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini

isbotlaydi. Til bunday xususiyatlarni aniq formalarda xususiylar hodisa va voqeliklar sifatida gavdalantiradi. Shu nuqtayi nazardan til va nutqning har biriga xos mustaqil birliklar mavjud [1]. **Lisoniy birliklar:** fonema, morfema, leksema, qolip. **Nutqiy birliklar:** tovush, qo`shimcha, so`z, so`z birikmasi, gap.

Eng kichik va bo`linmaydigan, ma`no ajratish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik fonemadir.

So`zning ma`noli bo`linmas eng kichik qismi morfema deyiladi. Morfemalar o`zak va affiksial morfemalarga ajratiladi. O`zak morfema so`zda, albatta, ishtirok etadigan, leksik ma`no ifodalayoladigan lison birligidir [2].

Affiksial morfema mustaqil leksik ma`no ifodalay olmaydigan, so`zning leksik yoki grammatik ma`nolarining shakllanishida xizmat qiladigan lison birligidir. **Ishchi** so`zida “ish”- o`zak morfema, **-chi** esa leksik ma`no ifodalaydigan affiksial morfemadir. **Ishda** so`zida “ish”- o`zak morfema, **-da** esa grammatik ma`no ifodalaydigan affiksial morfema. Ingliz tilida **worker** so`zida work – o`zak morfema, **-er** esa leksik ma`no ifodalovchi affiksial morfema. **Works** so`zida **work-** o`zak morfema, **-s** esa grammatik ma`no ifodalaydigan affiksial morfema. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko`rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemadir [3].

Lisoniy birliklarning navbatdagi turi qurilma-qoliplardir. Qolip deganda so`z, so`z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo`ladi: so`z yasash qoliplari va sintaktik, ya`ni so`z birikmasi qoliplari.

Lisoniy va nutqiy birliklar o`zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo`ladi, lisoniy birlilar moddiylikdan xoli, cheklangan, ijtimoiy, barqaror kabi belgilarga ega bo`lsa, nutqiy birliklar moddiylikka, cheksiz, individual, o`tkinchi kabi belgilarga ega [4].

1. Ne`matov H., Bozorov O. Til va nutq.-Toshkent, 1995.

2. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili.-T., 1980. bb.160-161

3. O`sha asar. bb.8-9

4. O`sha asar. bb.8-9

Tilning umumiy ichki taraqqiyot qonunlaridan biri tilning lison me'yor-nutq kabi bir-birini talab etuvchi va inkor etuvchi tomonlarining dialektik butunligidan iborat bo'lishidir.

Inson nutqi uning kishilar orasidagi mavqeini belgilaydigan omillardan sanaladi. Shuning uchun nutqda qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lishi lozim. Bu xususiyatlar sirasiga nutqning mantiqiyligi, to'g'riligi, ravonligi kabilar bilan bir qatorda ifodaliligi, ta'sirchanligi ham kiradi. Ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan shunchaki qabul qilinishini emas, balki uning tushunarli, ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi. Ifodalari soda, ammo katta mazmunga ega bo'lgan nutq tinglovchiga qiziqish uyg'otadi va uning ongiga tez yetib boradi. Ifodalilik nuqtayi nazaridan qaralganda kishilarning nutqlari xilma-xildir. Hatto bir mavzuga bag'ishlangan turli kishilarning nutqi turlicha ifodalanishi mumkin. bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqasiga nisbatan loqayd munosabatda bo'ladi. nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantig'i, dalillarining yangiligi, muallifning ta'sir o'tkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir [1].

O'quvchi xalq og'zaki ijodi namunalari, latifalar, askiya va loflar bilan bir qatorda A.Qodiriy, A.Qahhor, O'.Hoshimov, M.Yusuflarning nasriy va lirik asarlarini zo'r qiziqish bilan o'qiydi. Chunki yuqorida sanalgan ijodkorlar asarlarining tili tushunarli ravon, eng asosiysi ularda ta'sirchan ifodaviylik mavjud. Masalan, benazir ifoda egasi, O'zbekiston Xalq shoiri, marhum Muhammad Yusufning quyidagi sherida ifodaning o'ziga xos kuchli, hayajonli ta'sirini kuzatish mumkin.

Mayli-da, kimgadir

Yoqsa,

Yoqmasa

Ularga qo'shilib

Yig`lasharmidik.

Biz baxtli bo`lamiz

Xudo xohlasa-

Xudo xohlamasa

Uchrasharmidik. [Muhammad Yusuf. Saylanma. –T. 200, -B/ 16-17]

Ko`rinib turibdiki, shoir ushbu misralarda ifodaning ta'sir kuchidan unumli foydalangan. Misralardagi har bir so`z alohida bir hisga va kitobxon qalbiga iliqlik baxsh etadigan ta'sirga ega. Shunday qilib, tuzilish xususiyatlari, fazilati, ta'sirchanligi bilan tinglovchining dunyoqarashini, uning fikr va tuyg`ularini o`zgartirib yuboradigan nutq ifodali hisoblanadi.

Xuddi shunday fikrlarga yuqorida keltirilgan she'ning davomida ham ko`zga tashlanadi:

Rayhon hidlaringni

Yo`llaringa sep,

Kut meni

Har oqshom,

Ko`kka oy chiqqan.

Faqat, yig`lamagin,

Gunohim ne deb,

Aybing-

Onang seni

Chiroyli tuqqan!...

Muhammad Yusufning bu she'rini ozbek sh'riyatining mumtoz namunasi sifatida baholash lozim. Bu she'r badiiy tuzilishi va soddaligi bilan ajralib turadi. Uning so`zlari, gap qurilishi, ritmi har qanday o`quvchiga tushunarli va yaqin. Ana shu tushunarlilik, yaqinlik shoirning iste'dodi va fikr ifodalashdagi o`ziga xos mahoratidan darak berib turibdi. Bunda she'ning soddaligi va ravonligi orqali

ifodalilik yanada oshirilgan. Lirik qahramon-oshiqning o'z yoriga bo'lgan munosabati, muhabbati kuchining balandligiga ishoralarda she'rning sintaktik qurilishi va so'z tanlash borasida muallif mahorati ko'zga tashlanadi. She'rdagi nutqiy ifodaviylik o'quvchini o'ziga tortadi va uni mulohaza yuritishga undaydi:

Menga

Bir tabassum

Hadya et, ey yor,

Nur tomsin

Lablaring

Sohillaridan

O'zing ayt,

Senday qiz

Yana qayda bor...

Qator adabiyotlarda nutq ifodaviyligining xilma-xil ko'rinishlari qayd qilib o'tilgan.

Bular sirasiga quvonch irodasi, qo'rquv irodasi, chaqiriq ifodasi, isimlik va ajablanish ifodasi va boshqalar kiradi. Bularning har biri o'ziga xos nutqiy sharoitlar uchun o'rinli hisoblanadi. Lirik qahramon-oshiqning izhori, muhabbati ifodasi tasvirlangan yuqoridagi misralarda yashirin bir hayajon, bo'ronga yaqinlashayotgan sokinlik ifodasi ko'zga tashlanadi.

Ifodalilik, birinchidan nutq vaziyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, tilning tuzilishi bilan bog'liqdir.

O'qituvchining darsdagi nutqi ifodaliligi bilan targ'ibotchining ma'ruza ifodaliligini, "Axborot infarmasion dasturi" diktori nutqidagi ifodalilikni bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Ular tashbehlar va lug'aviy qatlamlarning, ohangining ko'rinishlari bilan bir-biridan ajratib turadi.

Nutqning ifodaliligini talaffuz, urg'u, leksika, so'z yasalishi morfologiya, sintaxis, uslub bilan aloqadordir. Demak, ifodalilik til imkoniyatlarining har xil sohalari ishtirokida yuzaga chiqadi.

Nutq ifodaviyligi quyidagi shartlar asosida ro'yobga chiqadi. [1]. :

- nutq muallifi tafakkurining erkin, mustaqil bo'lishi;
- nutq muallifi kim va nima haqida so'zlayotganini kimlarga so'zlayotganini bilishi, qiziqishi, ayni vaqtda beparvo bo'lmasligi;
- tilni, uning ifoda-vositalarini imkoniyatlarini yaxshi bilishi;
- til uslublari (badiiy, ilmiy, publistik, so'zlashuv, rasmiy uslublari) xususiyatlari, xossalarini bilish;
- nutqiy malaka ustida muntazam va ongli mashq qilishi va olingan bilimni malakaga aylantirishi;
- so'zlovchining ifodali so'zlashga bo'lgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligi;
- tilda nutqning ifodaliligini ta'minlovchi vositalarining bo'lishi;
- nutqning metafora, metanimiya, sinekdoxa, jonlantirish, mubolag'a, litota kabi ma'no ko'chish usullariga boy bo'lishi;
- nutqdagi so'zlar umumiste'mol, ya'ni ommabop bo'lish;
- nutqning xalq og'zaki ijodi namunalari (maqol, hikmatli so'z, ibora kabilar)ga boy bo'lishi kabilar. Bular ifodalikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Nutq jarayonida bu shartlardan o'rinli foydalanish uning madaniyatini ta'sir kuchini yanada oshiradi. [2].

Xullas, nutqifodaviyligi kishi o'z fikrini tinglovchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning turli badiiy tasvir vositalariga boyligi esa nutqning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Badiiy matn o'zida yozuvchining keng imkoniyatlarini namoyon etadi. Yangi badiiy matn orqali yozuvchiga xos o'zgacha uslubni, dunyoqarashni, yo'nalishni, yashirin ma'nolarni bir so'z bilan aytganda ijodiy erkinlikni anglash mumkin. Bu borada yozuvchi asarining chuqur tushunilishi uchun turli stilistik vositalardan foydalanish bilan bir qatorda, og'zaki nutqqa xos ma'no nozikliklarini berishda boshqa vositalardan ham foydalanishi mumkin.

1.Qilichev E.R.O'zbek tilining amaliy stilistikasi.-Toshkent, 1992. B.22

2. O'sha asar. 22 b.

Masalan, muallif asar qahramonlarining turli holatlarini ko'rsatishda, bu holatlarning ta'sirligini kuchaytirishida tinish belgilarini normada ko'rsatilmagan holatda qo'llashlari mumkin. Masalan, chop oxirida ikki tugallovchi tinish belgini qo'llash mumkin emasligi, yoki qavs ichida undov belgisini qo'llash holati, shular jumlasidandir:

1. "What the hell, Rabert", I said. "What the hell". 2. No, listen, Jake. 3. "No, that doesn't interest me", 4. Traffic-signal horsecabs "Tomorrow". 5, "It's a friend calling me", I explained, and went out. 6. "... " the drummer chanted. (``The Sun also Rises ``after Ernest Hemingway).

Ingliz tilidagi misolda so'roq gapdan so'ng so'roq belgisini qo'ymaslik, vergulni ikki komponenti bir egadan tashkil topgan gapda qo'llash, nuqtali vergulni vergul o'rnida qo'llash va hokazolar punktuatsiya normalaridan og'ishning badiiy bo'yoqdorlikni oshirishdagi xizmatini ko'rsatadi. Ingliz yozuvchisi E.L.Voynichning "The Gadfly" romanida eng ko'p ishlatilgan badiiy vositalardan biri sifatlash-epitetdir. Bu romanga nazar tashlasak, personaj va manzaralarning o'ziga xos belgilarini o'quvchi ko'z oldida gavdalashtira oladigan epitetlarni uchratish muallif tomonidan ishlatilgan epitetlar sifatlanishning ko'proq ob'ektiv xususiyatlarini aks ettirishni ekspressivlikning quyugligi bilan xarakterlanadi.

Masalan,

``But chere was a light enough to show the ghastly paleness of Montanelli's face ``[1]; - Lekin o'zlikniki singari qonsiz yuzini ko'rib bo'lmaydigan darajada hali qorong'u tushmagan edi [2].

``The punishment cell was a dark damp, filthy hole under ground.- Karser ichi qorong'i, zax va toqat qilib bo'lmaydigan darajada iflos edi. They went out into the still, shadowy, cloister garden. [3].

1.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, 1964. P. 9

2. Войнич Э. ``Супна``. -Т.,1956. P.9

3.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, 1964. P.62

- Ular jimjit , salqin manastir bog`iga chiqdilar.

But at the first sight of the glaring, white-streets and dusty, tourist, crammed promenades, a little frown appeared on Arthur`s face [1].- Ammo Artur turistlar bijillab yotgan chang ko`l bo`ylarini va ko`zlarni qamashtiradigan oppoq ko`chalarni ko`rdi-yu, qosh-qovog`i tushdi qoldi. But he wrenched it away and faced them suddenly, with the eyes of an angry wild beast [2]. In the little parlour she found a clumsy-looking standing with the heels together in the middle of the floor.- Jemma kichkina mehmonxonaga kirganda, o`rtada bo`so`naqay bir kishi qaqqayib turgan edi. He is an odd creature, The frenzied laughter died on Arthur`s lips [3].- Arturning telbalarga kelgusi birdan to`xtatadi [4]. With such a cunning fox as Rivarez one can not be careful.

Keltirilgan misollardagi epitetlarni tushirib qoldirsak ham (there was a light enough to show Montanelli`s face, In the parlour she found a man standing in the middle of the floor, They went out into the garden) ma`no anglashilaveradi. Ammo yuqoridagidek tasvir aniq, ravshan, emotsional va jonli bo`lib, ko`z oldimizda gavdalanmaydi. Matndagi ifodaviylik, bo`yoqdorlik yo`qoladi.

1.2. Muallif o`zi bayon qilayotgan fikrni kitobxonga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qiladi.

Masalan, ko`pincha biror narsa belgi, xususiyatini kitobxonga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzun va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to`g`ri keladi. Shunday vaqtda muallif fikrni bayon qilib berishda birdan ortiq gaplarni ishlatishdan kechib, tasviriy vositalardan foydalanadi.

Bu tasviriy vositalar troplar figuralar deb ikkiga bo`linadi. Maxsus tasviriy vositalar tilda obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi.

1. Войнич Э.``Суна``. -Т.,1956. 13 б.

2.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, 1964. P.189

3.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, 1964. P.47

4. Войнич Э.``Суна``. -Т.,1956. 68 б.

Ulardan foydalanish bilan muallif, birinchidan, tasviriy vositalarning xususiyatini yaxshi tushungan bo`lishi kerak, ikkinchidan nungni bo`yash, ko`r-ko`rona, haddan tashqari ko`p, o`rinli-o`rinsiz murojaat qilavermasligi kerak.

Aks holda kitobxonda muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg`onadi. Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlilikni ta'minlash uchun biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko`chirish, o`xshatish yoki so`zlarni shu maqsadda umuman ko`chma ma'noda ishlatish troplar deyiladi. Metafora, o`xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag`a, kichraytirish, kinoya, jonlantirish, perifraza kabi usullar troplarning turlari bo`lsa, takror, antiteza, elipsis, ritorik so`roq, bog`lovchiliksizlik, ko`p bog`lovchilik, stilistik figuralarning turlari hisoblanadi.

Matnning ta'sirchanligini kuchaytirishda badiiy tasvir vositalarining ahamiyati nihoyatda katta. Muallif bayon etayotgan fikrni kitobxonga ixcham, ta'sirchan, aniq va tushunarli qilib yetkazishga harakat qiladi. Ko`pgina biror narsa belgi, xususiyatini tinglovchi kitobxonga tushunarli va aniq qilib tasvirlash uchun qator gaplarni ishlatish o`rnida o`xshatish, sifatlash, kinoya, allegoriya, elipsis, metafora, metonimiya, jonlantirish kabi badiiy tasviriy vositalardan foydalanadi. Badiiy tasviriy vositalar troplar deyiladi. Troplar jumlasiga metafora, metonimiya, mubolag`a, litota (kichraytirish), kesatish, perifraz, epitet, o`xshatish, sinekdoxa, allegoriya, simvol, antifraza, sarkazm, jonlantirish kabilar kiradi.

Uslubiy vositalar jumlasiga antiteza, inversiya, ritorik so`roq, parallel konstruksiyalar, darajalanish, ko`p bog`lovchilik, bog`lovchisizlik, jim qolish, takror, ellipsis kabilar kiradi [1].

Badiiy tasviriy vositalar matnda obrazlilik, hissiylikni kuchaytiradi.

1.Baskakov.N.A, Saidov A.S, Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent, 1979. 53 b.

Bu vositalardan foydalanish bilan muallif kitobxonning sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari matnda qisqalikka, aniqlikka erishadi.

Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlilikni ta'minlash niyatida biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda umuman ko'chma ma'noda ishlatish troplar deyiladi [1].

Trop nutqda so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatishdir. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyoslash troplar vazifasiga kiradi.

Epitet-grekcha so'z bo'lib, izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Epitet poetik aniqlovchi. U boshqa aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilishi va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi [2]. Nasriy asarlarda epitetning harakat doirasi, qamrovi ancha keng. Bu birinchi navbatda nasriy asarning "muallif nuiqi, qahramon nutqi"dan kelib chiqadi. haqiqiy badiiy epitet ko'chma ma'no asosida paydo bo'ladi. Epitetlar ma'noga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. bog'langan (associated) - tasvirlanayotgan predmetga ma'no jihatdan yaqin sifatlash: dreary midnight, fantastic terrors.
2. bog'lanmagan (unassociated)-tasvirlanayotgan predmetga ma'no jihatdan yaqin bo'lmagan, yangiligi bilan kitobxonni hayratga soladigan epitetlar: voiceless sands, bootless cries.

Tuzilishiga ko'ra ular quyidagi turlaga bo'linadi:

1. sodda (simple)
2. qo'shma (compound)
3. frazali [gap] (phrase-sentence)

Sodda epitetlar tarkibiga bir so'zdan iborat bo'lgan sifatlar kiradi:

Careful attention.

1.Qo'ng'urov R.,Begmatov E.,Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.- Toshkent,1992. 97 b.

2.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977. P.152

Qo'shma epitetlar bir necha so'zdan sifatlarning birikishidan hosil bo'ladi:
heart burning sigh.

Frazali gap epitetlar birikma shaklida bo'lib, ular doimo otdan oldin keladi. O.S. Axmanovanning aytishicha, sintaktik birliklar, ya'ni, frazali gap epitetlar leksik birliklarga qaraganda ochiq, tasvirlovchi, mufassal, puxta o'ylangan bo'ladi: Freddie was standing in front of the fire-place with a well that's the story what are we going to do about it air that made him a focal point [L.Ford "Siren in the nights"]

Oddiy, doimiy an'anaviy epitetlar kishida hayajon, hissiy to'lqinlar uyg'otmaydi: ko'm-ko'k osmon, qora ko'z. Uslubiy epitetda muallif ta'sirlanayotgan narsa yoki voqeaning o'zi zarur deb hisoblagan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. M: H. Olimjon:

Men bir qora tunda tug'ildim,

Tug'ildimu shu on bo'g'ildim.

Der ekan, tun oldidan oddiysifatlovchi qora so'zini keltiradi. Ammo bu so'zni shoir ko'chma ma'noda (tuzilgan vaqtdagi turmushni "qora tun"ga o'xshatadi) ishlatadi va ekspressivlikni ta'minlaydi, haqiqiy badiiy epiteto ko'chma ma'no asosida paydo bo'ladi. Bunday epitetlar metaforik epitetlar deb ataladi:

Navqiron bir terakning cho'qqisida oshiyon-

Kech kuz tangotarini salom bilan olqishlar. (G'.G'ulom)

G'ururlanib poezd qichqirib, uzoqlarga tomon uchadi.

Oq bug'lari yengil suzilib, muzday havolarni quchadi. (Uyg'un, "Oq qirlar") Compound epithet: "...curly-headed good-for-nothing, and mischief-making monkey from his birth" (Byron)

Phrase epithets: "It is this do-it-yourself, go-it-alone attitude that has this far held back real development of the Middle East's river resources" [1]

“There is a sort of” Oh-what a wicked-world-this-is-and-how-I-wish-I could-do-something-to-make-it-better-and-nobler” expression about Montmorency that has been known to bring the tears into the eyes of pious old ladies and gentlemen [1].

Reversed epithet of- phrase bilan yasaladi: “the shadow of a smile”, “a devil of a job” [maughm], a little Flying Dutchman of a cab (Galsworthy), “a dog of a fellow” (Dickens) [2]

**O`xshatish (simile)** narsa va hodasalar o`rtasidagi o`xshashlikka asoslanib, ularning bir orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to`laroq, aniqroq, bo`rtiribroq ko`rsatib berish o`xshatish deyiladi. O`xshatish to`rt asosiy qismdan tarkib topadi.

1. o`xshatilgan narsa
2. o`xshatiladigan narsa
3. o`xshatish asosi belgi
4. o`xshatish vositasi

Shoirning qo`shiqlaridan ilhomlangan o`zbek yigitlari frontga borib, sherday jang qiladilar.

(H.Olimjon, "O`zbek xalqining adabiyoti"1948,III.): Nima o`xshatilayapti?- yigitlar nimaga o`xshatilyapti?- sherga o`xshatishga asos jang, o`xshatish vositasi-"Maidens like moths, are ever caught by glare" (Byron).

Ingliz tilida o`xshatishlar like, as, such as, as if, seem kabi so`zlar bilan yasaladi. o`zbek tilida o`xshatishlar-day, o`xshash, teng, kabi, singari, qadar, go`yo, go`yoki, misoli, yanglig`, aynan, xuddi: Ana shu haqiqat go`yo adolatni uyqudan uyg`otgandek bo`ldi . (I.Rahim. "Chin muhabbat".)

Metafora-grekcha so`z bo`lib ``ko`chim``degan ma'noni bildiradi.

-
1. Jerome K.Jerome, “Three man in a Boat”. P.155.
 2. O`sha asar. 157 b.

Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo`yoq berish niyatida narsa va hodisalar o`rtasida o`xshashlikka asoslanib, so`z yoki iboralarni ko`chma ma'noda ishlatish metaforadir.

I.V.Arnoldning aytishicha, metafora yashirincha o`xshatish, bir predmetning nomini boshqa predmetning nomi bilan atash natijasida hosil bo`ladi.[1]. V.V.Vinogradov esa metaforani individual dunyoqarashni shakllantirish harakati deydi. U kitobxon ongiga narsa va hodisalarning sub'ektiv ko`rinishi va ular o`rtasidagi bog`liqlikni singdiradi [2]. O`xshatishda ikki a'zo ishtirok etadi. Metaforadan esa bir a'zo ishtirok etadi.

Metafora tuzilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: sodda va kengaygan.

Sodda metafora: gumbaz- osmon ma'nosida. Ilon-sovuq, tili zahar odam ma'nosida, arslon, lochin-kuchli odam ma'nosidir.

Kengaygan metafora: po`lat qush, oq oltin, oltin kuz.

Simple metaphor: She is a snake. He is a fox.

Compound metaphor: a flight of fancy, a gleam of mirth

I.V.Arnold **genuine** va **trite** (haqiqiy va siyqasi chiqqan) metaforalar haqida gapiradi:

Genuine (haqiqiy) metaforalar poeziyada, prozada, badiiy matnlarda yozuvchining shoirning individual uslubiga xos bo`lib, uni ko`proq adabiyotshunoslik o`rganadi. Agar metafora narsa yoki hodisaning nomiga aylanib ketsa, u til fakti sifatida tilshunoslikning ob'ekti hisoblanadi va bu tipdagi metaforalarni trite metaphor, ya'ni siyqasi chiqqan metafora deyish mumkin.

Misollar "The most docile horse will kick if you are always jerking at the rem [3]. I am a terrible bookworm [4]. I feared that he would take from me the heart of the girl [5].

1.Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Ленинград, 1984. Стр. 82-83

2.Виноградов В.В. Стиль Пушкина.-М., 1937.s.89

3.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, p.54.

4. O`sha asar. p.56

5.O`sha asar. p.60

..... he looked up... vaguely wondering how many hours or weeks he had been in this grave [1].

He climbed up the side of a huge black monster [2]. It is simply putting one's head in to the lion's mouth out of sheer [3]. He is an old creature [4].

Metonimiya-grekcha so'z b'olib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Bu vosita ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Bunda tashqi yoki ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. [5] aloqadorlik quyidagicha ifodalanadi.

1) Narsa ichidagi narsaning ma'nosi o'sha narsaga ko'chadi: The hall applauded. The Kettle is boiling.

Bir tovoq palov yedim.

2) Qism va bo'lak orasidagi bog'liqlik: She has roof over her head.

3) Harakat yoki uning natijasida shu harakatni bajarishdagi vosita, qurol bilan almashtiriladi: He supported his family by the pen. Uning perosi qasos o'ti bilan yonardi. [A.N.Tolstoy]

4) Biror narsani u yasalgan material bilan almashtirish: qo'lda po'lat shirqillar. You always think if a man comes from down south he must believe in no argument but cold steel (pichoq ma'nosida) [6]. The marble spoke.

5) Ma'lum mamlakatda yoki ma'lum o'rinda yashab turgan kishilar o'rnida shu mamlakat yoki o'rin, joy ishlatiladi: Majlisga butun qishloq keldi (A.Qahhor). "The round game table was boisterous and happy"(Dickens)

6) Muallifning nomi Rosetti asarining nomi bilan almashadi:

1.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, p.73.

2. O'sha asar. p.73

3.O'sha asar. p.103

4. O'sha asar. p.106

5.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977. P.140-142

6.Voynich E.L. The Gadfly.-Moscow, p.101.

I love Shakespeare. Have you a Rosetti? (a picture by Rosetti) [33,77]
Navoiyni o`qidim.

Sinekdoxa metonimiyani bir turib bo`lib [1,85] unda narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi:

N-Nima? - dedi mo`ylov tutoqib [0. Yoqubov, "Diyonat"]. Since I left you, my eye is in my mind (W. Shakespear, Sonnet C XIII). "Then they came in. Two of them, a man with long fair moustaches and a silent dark man... Definitely, the moustache and I had nothing in common". (Doris Lessing . "Retreat to Innocence") [8,141]. 8.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977.

Antonomaziya [1,85] atoqli nomlarning turdosh otlarga va turdosh otlarning atoqli otlarga o`tishi hisoblanadi: I do not claim to be a caruso (I do not claim that I sing well) [14,77]. Yosh Oybeklar bayrog`in ko`taraylik balandga (A.O)[49,78]. Biz ana shu Shirin shaharchasidagi Sirdaryo GRESSini qurayotgan farhodlarning biri haqida hikoya qilamiz [49,78].

He was engaged to be married to a Miss Hubbard [14,77]

**Mubolag`a (hyperbole)**. Mubolag`a ortirib, bo`rttirib, ko`rsatish ma'nosini bildiradi. Mubolag`a haqiqatga ma'lum darajada mos kelishi kerak aks holda badiiy bo`yoq yo`qoladi, o`quvchida ishonchsizlik hosil bo`ladi [8,173-174].
8.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977.

Mubolag`ali tasvir haqiqatga yaqin kelganday bo`ladi, ammo amalga oshishi mumkin bo`lmaydi:

Agar muhabbat shunday kezlarda to`kiladigan ko`z yoshi bilan o`lchansa, yuzta Shirinu, yuzta Laylining muhabbati bunikiga o`rpoq ham emas. (A. Qahhor, "Xotinlar"). "and this maiden she lined with no other thought.

Them to love and be loned by me"[Edgar Allan Poe]

2. Mubolag`ali tasvirni faqat tasavvur qilish mumkin, amalga oshirish mumkin emas.

1.Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. —Ленинград, 1984.

Oygul turishi bilan, saroy charaqlab, ketdi, hammayoq bo`lib ravshan, uylar yaraqlab ketdi. (H. Olimjon. "Oygul bilan Baxtiyor".)

3. Mubolag`ali tasvirni amalda bajarish mumkin emas, hatto tasavvur ham qilish mumkin emas. "quyoshni olardi to`zon, hatto daryolardan chiqar edi chang [H.Olimjon, "Sharqqa ketganda"]].

Ko`pchilik hollarda mubolag`a bo`rtitishga metofara asosida hosil bo`ladi. [1,83].

1.Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Ленинград, 1984.

All days are nights to see till I see thee ,

And night`s bright days when dreams do show thee me [W.Shakspeare. Sonnet XVIII].

Sevgilisini ko`rmagan kun tunga aylanadi., deyilgan, albatta kunning tunga aylanishi hech ham mumkin emas. Uni tasavvur ham qilib bo`lmaydi. Bunda judolik sevishganlar uchun kunni tunga aylanishga o`xshatiladi.

Kichraytirish (litotes) narsa va hodisalarni o`z holatiga nisbatan, haddan tashqari kichraytirib tasvirlash litota deyiladi. Bu hodisani I.R.Galperin quyidagicha tariflaydi "Litotes is a deliberate understatement used to produce a stylistic effect. It is not a pure negation, but a negation that includes affirmation [8,250]. 8.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977.

It is not a bad thing It is a good thing.

He is no coward. He is a brave man.

He was not without taste.

He troubled him not a little [8,251]

Bu so`zning ma'nosi shu qadar teran,

Dengizlar bir xo`plam uning qoshida. (Uyg`un "Tinchlik kuylari").

Kesatiq (irony), grekcha so`z bo`lib zimdan kulish, kesatish ma'nosini beradi. I.R.Galperin kesatiqni yumor bilan aralashtirmaslikni uqtiradi. Yumor doimo kulgini ta'minlaydi . Kesatiq norozilik va salbiy ma'nolarni ifoda etadi [8,142-144]. 8.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977.

It must be delightful to find oneself in a foreign country without a penny in one's pocket"[31,142]

I like a parliamentary debate,
Particularly when tis not too late.

Parlamentda muhokamalar odatda judda cho`ziladi, bu hech kimga yoqmaydi. Bu gapda "Like" kesatiq ma'nosida ishlatilgan.

Shunday qilib so`z va iboralarni kesatish va masxaraomuz, kulish niyatida o`z manolariga qarama-qarshi ma'nolarida ishlatiladi. Kesatiqda so`zlovchi jiddiy gapirganday bo`ladi. Lekin uning tagida haqiqiy ma'noda qarama-qarshi bo`lgan yashirin kulgi yotadi,[27,106]

Perifraz-grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiraman demakdir. Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab beruvchi vositalar yordamida bayon qilish, perifraz deyiladi. Perifrazda narsa va u almashtirilgan tasviriy iroda o`rtasida borliqlik, yaqinlik bo`lishi kerak.

I.R.Garperin bu vositani quyidagicha tasvirlaydi.

Periphrasis is the re-naming of an object by a phrase that brings out some particular feature of the object. The essence of the device is that it is decipherable only in context. If a periphrastic location is understandable outside the context, it is not a stylistic device but merely a synonymous expression [8,166].

8.Galperin I.R. Stylistics.- Moscow,1977.

The cap and gown ("student body"), a gentleman of the long robe (a lawyer)

Yuqoridagi misollar stilistik vosita emas, balki ular lug`aviy perifrazlardir. I.R.Galperinning aytishicha, stilistik perifraz logik va ko`chma ma'noda bo`ladi. [8,169]. Mantiqiy perefraslarda tasvirlanaytgan ob'ekt boshqacha so`z bilan beriladi. Instruments of destruction-pistols, the most pardonable of human weaknesses (Dickens) love. Ko`chma ma'nodagi perifrazlar metafora va metonimiya asosida hosil bo`ladi: in disgrace with fortune and men's eyes (Shakespeare) misfortune to tie the knot to marry.

Metofora, metonimiya hamda perefraz o`rtasidagi farq perifrazning strukturaviy ko`rinishida, ya'ni perifraz so`z birikmasidan tashkil topadi.

O`zbek adabiy bayroqdori Alisher Navoiy.

Aksimoron- ikkita bir-biriga qarama-qarshi ma'noda bo`lgan so`zlarning birikishi. Odatda, sifat bilan ot yoki ravish bilan sifat turkimidagi so`zlar birikadi. [1,94].

1.Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. —Ленинград, 1984.

Unday birikmalarda ma'noning ikkila komponenti o`zining ma'nosini saqlab qoladi: And faith unfaithful kept him falsely true [A,Tennyson].

Awfully beautiful, worst friend, best enemy, tirik murda, vijdonli o`g`ri, achchiq shodlik.

Rusiya, Rusiya, so`ngi yo`q tuproq

Ey, buyuk vayrona, ey kafangado! (H.Olimjon, "Pushkin")

Soqchilar zolim xonni

Bu ajoyib hayvonni

Og`ilda ushladilar.

O`lgiday mushtladilar. (H.Olimjon, "Oygul bilan Baxtiyor").

Antitezada, ikki qarama-qarshi qutb biri ikkinchisini inkor qiladi. Aksimoranda ikki qarama-qarshi ma'noli so`z bir-biriga birlashadi. Biri ikkichchisiga nisbatan aniqlovchi sifatida ishllanadi. Aksimoran: bahaybat katta uyga baxaybat bir kulcha, peopled desert;

Antiteza antonimlarga asoslanmaydi, bunda fikr qarama-qarshiligi nazarda tutiladi :

Taajjub-yangicha a'za, yangicha bazm.

Ko`zlarida yosh, lablarida kulgu

Egnilarida qora libos.

Qo`llarida qizil sharob... (I.Sulton)

(Uyg`un " A.Navoiy")

Youth is lovely age is lonely,

Youth is fiery, age is frosty (Longfellow)

Jonlantirish (personification). Jonsiz narsalarni inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan soʻzlaydigan qilib, tasvirlash, jonlantirish deyiladi.

Misol:

Bunda togʻning taglarida qish,

Bahor uchun soʻzlaydi olqish.

(Hamid Olimjon)

The wind stood up and gave a shout.

He whistled on his fingers and

Kicked the withered leaves about

And thumped the branches with his hand

And said he'd kill and kill and kill,

And so he will and so he will.

(James Stephens, "The Wind")

Jonlantirishning 2 xil koʻrinishi bor:

1. Tashxis- jonsiz narsalarni jonlantirish. Tabiat manzaralari, jonzotlar, hayotdagi turli buyumlar va tushunchalarning insonga xos boʻlgan fazilatlar, belgilar bilan jonlantirilib, shaxsga mansub xususiyatlar bilan toʻyintirilib berilishi Tashxis sanʼati deb yuritiladi. Masalan, bogʻ, sahro, bulut, yomgʻir, hilol, yulduz, quyosh, gul, chumoli, ohu, tun, sabo, may, qadah, qalam, qogʻoz va hokazolarni insonga xos boʻlgan xususiyatlar bilan jonlantirish orqali shoir, yozuvchi oʻz asarida chiroyli va nafis obrazlilikka erishadi.

2. Intoq-nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. [22,39]

Misol:

Shaftoli der, kulib: kuz choqlari

Sharbat bilan lim-lim toʻlamun.

Yemagan armonda, yegan darmonda.
Ming dardingga shifo bo‘laman.

Yaprog‘iga berkinib olib,
- Suqing kirar, ko‘p nazar solma!
Qizil yuzlarimdan bir o‘pganning
Armoni yo‘q, der yoqut olma.

(Uyg‘un ``Kuz oqshomlari)

M.Yo‘ldoshev jonlantirishni ot so‘z turkumi doirasida belgilaydi. L.Jalolova esa ularni fe‘l so‘z turkumi doirasida izohlaydi. Bizningcha, jonlantirishlar ot va fe‘l so‘z turkumining o‘zaro sintagmatik munosabatidan hosil bo‘ladi. Jonlantirishlarda ma‘lum ma‘noda predikativlik ham mavjud.

Jonlantirishga she'riy asarlardan ertak va masallarda ko‘proq murojaat qilinadi. Bunda insonga tegishli xususiyatlar va xislatlar harakat va xolatlar jonsiz predmetga mavhum xodisalarga ko‘chiriladi. Bu obe'ktlar ingliz tilida he yoki she olmoshlari bilan berilishi mumkin. Bu olmoshlar nutq, fikrlash, xohish kabilarini ifodalaydigan fe‘llar bilan birikadi. Ba'zan jonlantiriladigan ob'ekt bosh harf bilan boshlanadi. (Time) [1,86] 1.Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград, 1984. I.V.Arnold jonlantirish haqida fikr yuritib, Shekspirning asarlaridan misol keltiradi:

Like as the waves make towards the pebbled shore,
So do our minutes hasten to their end;
Each changing place with that which goes before,
In sequent toil all forwards do contend.
Nativity, once in the main of light,
Grawls to maturity, wherewith being crown`d,
Rooked eclipses gainst his glory fight,
And time that gave doth now his gift confound.

Time doth transfix the flourish set on youth
And delves the parallels in beauty's brow,
Feeds on the rarities of nature's truth,
And nothing stands but for his scythe to mow:
And yet to times in hope my verse shall stand,
Praising thy worth, despite his cruel hand [W.Shakespeare, Sonnet LX]

Bu asarda kengaytirilgan jonlantirish har xil berilgan. Hasten, contend forwards fe'llari harakatlarni shoshilinch bilan amalga oshirilishini talab etadi, shuning uchun ham So do our minutes hasten to their end satrida va iolgan satrlarda da'iiia jonlantiriladi. Time metonimiya yordamida berilib, minutes jonlantirilgan. Chunki minutes insonga tegishli harakat va holatlarni ifodalaydigan fe'llar bilan birikkan. Nativity va Maturity kabi mavhum ob'ektlar jonlantiriladi.

Keyinchalik sonataning markazida Time bosh harf bilan yozilib, keyinchalik mujskoy roddagi olmosh bilan almashtiriladi. (his gift, his scythe, his cruel hand), unga insonga tegishli a'zo, ya'ni hand biriktirilib, insonga tegishli harakat amalga oshiriladi. U berishi va olishi mumkin, shavqatsiz bo'lishi mumkin.

Mazkur kontekstda insonning kurash haqidagi g'oyasi vaqt (Time) bilan bog'langan, vaqt insondan unga tegishli zaruriy narsalarni tortib oladi va vaqti bilan beradi, vaqt (Time) insonga nisbatan shavqatsizlik qiladi va vaqti kelib, inson vaqt (Time) ustidan g'alaba qozonadi.

I.V.Arnold [1,8] V.Shekspirning yuqorida keltirilgan sonatasidagi jonlantirish stilistik vositasi orqali berilgan g'oyani shunday tahlil etadi. I.V.Arnold mazkur san'atda insonlantirish stilistik vositasining kengayib borishi sayin allegoriyaga o'sib o'tishini ko'rsatadi.

I.V.Arnold allegoriyaga misol qilib, Die. Benyanning "Ziyoratchining yo'li" (Put pololenika) romanini oladi. Allegoriyaga ertaklar, masalalardagi tabiat hodisalari, predmetlar va hayvonlarga nisbatan insonga xos xususiyat, xislat, harakat va holatlar ishlanib, har xil hayotiy holatlarning ramzlashishi kiradi. R.

Qo'ng'irov allegoriyaga misol qilib, S.Abduqahhor yorning "Daryo bilan isilg'a" masalida birlashgan o'zar, birlashmagan o'zar tushunchasi "daryo va isilg'a" obrazlari orqali berilishini tasvirlagan. Daryo isilg'aga "bizga qo'shil" deyishicha qaramasdan manmanlik qilib, cho'llarga tomon yo'l oladi. Ammo yo'lda qumloqqa duch kelib, unga sinchib ketadi. So'z bila ish birligi g'oyasi uning "Vazxon ayiq" masalida ilgari surilgan. Ayiq va'zxonlik qilib, quyon sen toshboqa yo'ldan yur, ekinlarni bosma deydi-yu, ammo o'zi uyiga qaytishda ekinlarni poymol qilib ketadi : Ayiqboy ketdi sekin, Payxon etib, bosib ekin... Allegoriyaga ko'proq badiiy usulning masal, ertak janrida, publistik uslubda tez-tez murojaat qilib turiladi [27,105].

II Bob. E.L. Voynichning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va ekspressivlikni, ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("So'na" romani misolida).

2.1. XIX asr oxiri XX asr o'rtalirida yashab ijod qilgan adib, ulkan so'z san'atkori Etel Lilian Voynich ingliz adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega.

U 1864- yil 11 mayda Irlandiya shahri Karkeda tug'ildi.

Otasi Jorj Bull taniqli ingliz olimi, matematika fanining professori, matematik mantiq ramzining kashfiyotchisi edi. Hozir ham zamonaviy kibernetika shu kashfiyotdan foydalanadi. Onasi Meri Everest XX asr boshlarida yaratilgan Crank asarining muallifi. Etel Lilian yarim yoshligida otasi Jorj Bull olamdan o'tdi. Etel Liliandan tashqari oilada yana 4 ta qiz bor edi. Onasi qiyinchilik bilan oilani boqdi. Etel Lilian yoshligidan tillarni, falsafa, adabiyot va musiqani o'rgandi, ko'p o'qidi. Yoshligida u Vilyam Bleykning she'rlarini sevib o'qir edi. Keyinchalik u V. Shekspir, J. Milton, Shelli va Dikkenzlarni sevib mutolaa qildi. Lilian yunon donishmandi Suqrotning ijodiga qiziqdi va uning jasurligi va mardligiga, g'oyalariga sodiqligiga mahliyo bo'lardi.

18 yoshida biroz merosga ega bo`lib, Lilian Berlinga jo`nadi. U yerda Lilian oliy musiqa maktabida ta'lim oldi va uni tugatdi. Shu davrda u ijtimoiy masalalar bilan qiziq boshladi.

Italiya va Rossiyaning taqdiri Lilianni ko`proq qiziqtirardi. Rus va Italiya xalqining ozodlik uchun qahramonlarcha o`zini fido qilganliklari, xususan Djuzeppe Madzinining bu yo`ldagi harakatlari Lilianning e'tiborini o`ziga jalb etdi. Etel Lilian har xil mamlakatlardagi revolyusion harakatlarga qiziqar va bular unda chuqur taassurot qoldirar edi. Bu taassurotlar uning dunyoqarashini o`zgartirib yubordi, uning adabiyot olamiga qadam qo`yishiga turtki bo`ldi.

Etel Lilian Londonda Mixail Vilfrid Voynich bilan uchrashdi. Voynich "Proletariat" partiyasining a'zosi, yosh Polsha revolyutsioneri edi. Mixailni qamoqqa olish chog`larida u hali 20 yoshni ham qarshi olmagan edi. 1890 yilda u qamoqdan qochishga muvaffaq bo`ldi va Londonga keldi. Shu yerda u Lilian Bulni yana qayta uchratdi va ular birgalikda ishlay boshlaydilar. Ularning ishi rus inqilobi adabiyoti va ta'qiqlangan kitoblarni katta nashr etish va ularni tegishli joylarga yuborish edi.

Shundan so`ng Lilian Bull va M.V.Voynich turmush qurishdi. Ular turmushlari davomida Vinefred Ayzenxard ismli qizaloqni boqib olishdi va uni Vinefred Gaya deb atashdi. Shunday qilib Lilian butun hayotini rus ozodlik harakati bilan bog`ladi.

II bob shu yerdan boshlanadi

Uning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo`lsak, Lilian ijodiy faoliyati davomida oltita roman va bir qancha tarjima ishlarini kitobxonlar hukmiga havola qildi. Voynich ijodining dastlabki davrlarida ikkita kichkina hikoya yozdi. Bular: "In a German Concret hall" ("Nemis konser zaminida") va "A winter Dreamer" ("Qishki oiychi") Uning ilk romani "Stories from Garshin". Shundan keyin Lilianning "The Humour of Russia", "Jack Raymond", "The Gadfly", "Olive Latham", "An Interrupted Friendship", "Put off thy shoes" kabi asarlari dunyo yuzini ko`rdi. Bu romanlar ichida uning "The Gadfly" - "So`na" romani uni

kutilmagan mashhurlikka olib keldi. Bu asar kitobxonlar tomonidan juda yaxshi kutib olindi va kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa etildi.

Lilian 1889 yilda "So`na" romanini yoza boshladi. Bu roman ozodlik uchun kurashga bag`ishlangan. Lilian Italiya ozodlik harakatining materiallarini qunt bilan o`rgandi. Florensiya va Bolona arxivlari hamda kutubxonalarida ishladi. "So`na" romanini yozish jarayonida Lilian nomi ozodlik harakatining shohidi bo`ldi.

"Подпольная Россия" asarining muallif rus revolyusioneri S.M.Stepnyakning badiiy faoliyati Lilianni juda qiziqtirganligi sababli "So`na" va Stepnyakning avtobiografik romani "Andrey Kojuxov" o`rtasida o`xshashliklar juda ko`p. Andrey Ko`juxovning o`z maqsadlari va g`oyalariga sodiqligi, jasurligi, dinga munosabatining o`zgarishi, ateist bo`lishi, ichki dunyosining boyligi, tabiatni sevishi, g`alabaga ishonishini "So`na" romanidagi "So`na" taxallusini olgan Arturda ham ko`rish mumkin. Romanlarning tavsilotlarida ham o`xshashlikni kuzatish mumkin, masalan, o`zining joniga qasd qilishga chog`lanish, qatldan keyin do`stlarining undan xat olganligi, ruhoniy otaning ayg`oqchiligi kabilar. "So`na" romani AQSh va Angliyada 1897 yilda nashr etildi va darhol rus tiliga tarjima qilindi. Agar chop etilgandan so`ng ikki xil fikrga ega bo`lgan tanqidchilar guruhi paydo bo`ldi.

Jozef Konrad romanga salbiy baho berib, "umrimda bunaqangi yoqimsiz asar o`qimaganman" [2] deydi:

Bertrand Rusel boshchiligidagi bir guruh tanqidchilar esa asarga yaxshi baho berib "Umrimda ingliz tilida yozilgan bunaqa to`lqinlantiruvchi asar o`qimaganman" [2] deb izoh beradi. Lilianning yana ikkita "An Interrupted Friendship" va "Put off thy Shoes" asarlari "So`na" romani bilan bevosita va bilvosita bog`liqdir. "An Interrupted Friendship" asarida "So`na" romanining qahramoni Artur Berton bilan bog`liq hodisalar o`z aksini topgan. Bu asarning voqealari "So`na" romanida tasvirlangan voqealardan bir necha yil oldin bo`lib o`tadi. Har ikala asar fojiali yakunlanadi. "An Interrupted Friendship" asarining

oxiri juda ham g'amgin va ma'yusdir. "Put off thy Shoes" da "So`na"ning katta buvisining hayoti tasvirlangan. Lilian Voynich ijodiy faoliyati davomida tarjima ishlari bilan ham shug'ullandi.

Stepnyakning pamfletlarni, Feliks Volkovskiyning "Claims of Russian Liberals" asarini, rus va ukrain xalq qo'shiqlarini ingliz tiliga tarjima qildi. Bundan tashqari u rus adabiyoti darhalari Shevchenko va Lermontov asarlarini ham ingliz tiliga tarjima qildi. Bu tarjimalar 1911 yilda Elkin Mativs tomonidan nashrga chiqilgan [2]. Voynich bu tarjima asarlari orqali tarjima san'atida yorqin iz qoldirgani shubhasiz.

Voynich Lilian 1911 yilda yozuvchilikni tashlab, musiqa bilan shug'ullana boshladi. U xudi shu yili Skott tomonidan tashkil etilgan "Ayollar musiqa jamiyati"ning a'zosi bo'ldi. Biroq uning adabiyotga bo'lgan qiziqishi yana shu sohaga jalb etdi va u so'nggi asari "Put off thy Shoes" ni yozib, 1945 yilda uni keng xalq ommasiga taqdim etadi. Garchi uning adabiyot sohasidagi ijodi sermahsul bo'lsada, u umrining oxirigacha musiqiy asarlar yozishni kanda qilmaydi. Voynich bu ikkala sohani barobar olib borishga harakat qilgan va qaysidir ma'noda buning uddasidan ham chiqqan.

Etel Lilian Voynich o'z zamondoshlarining ijodiga befarq bo'lmagan. Uni ayniqsa yosh ijodkorlar faoliyati ko'proq qiziqtirgan. Etel ularni muntazam qo'llab-quvvatlab, ruhlantirib turgan. Shunday yozuvchilardan biri Ivor Gurney Voynich bilan bir necha muddat Kornvelda yashadi. Lilian uning ijodini kuzatib, unga yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berib turdi. 1916 yildan boshlab Lilian va turmush o'rtog'i AQShning Nyu York shahrida istiqomat qila boshlashdi. Uning turmush o'rtog'i Vilfred Voynich 1930 yilda sil kasalligidan vafot etdi. 1960 yilning 27 iyulida Etel Lilian Voynich 96 yoshida bu dunyoni tark etdi.

Voynichning ijodiy faoliyati va hayot yo'li ko'pchilik ijodkorlar va yozuvchilarni qiziqtiradi va matbuotda u haqida yozilgan bir necha maqolalar chop etilgan. Bir qancha olimlar uning hayoti va ijodini dissertasiyalarda yoritganlar. Bulardan W.L.Courtney, (The Feminine Note in Fiction: Mrs,

Voynich) Pamela Blevins (Voynich Lilian's Way of Life), Arnold Kettl (E.L.Voynich: A Forgotten English Novelist) kabilar E.L.Voynichning tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida maqolalar bilan matbuotga chiqqanlar [5].

Mashhur ingliz adibasi Voynichning "So`na" romani yaratilgandan buyon bir asrdan ziyodroq vaqt o'tganiga qaramay, mazkur asar dramatik voqealarga boyligi, inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini aks ettirgani, insoniy iztiroblarning tabiiy va samimiy talqini bilan hamon kitobxonlarni hayajonlantirib kelmoqda.

"So`na" romanining bosh g'oyasi inqilob va inqilobchilar to'g'risida. Asarda tasvirlangan voqealar Italiyada 1840 yilda Avstriyaga qarshi qaratilgan inqilobiy harakatga to'g'ri keladi.

Asar voqealari asosan Italiyada va uning shaharlarida sodir bo'ladi. Romanning bosh qahramonlari Artur Berton, keyinchalik Feliks Rivarez, ya'ni So`na nomi bilan asar sahnasiga chiqadi, ruhoniylar Montanelli, Jemma, Madzini, Bola, Artur Bertonning yangisi Djuliyalar kabilar.

Asarda "Yosh Italiya" tashkiloti a'zolarining o'z Vatanini, ya'ni, Italiyani ozod qilish yo'lidagi harakatlari tasvirlangan. Roman voqealari juda shiddat bilan kechadi. Asarning yakuni esa fojiali, ya'ni Feliks Rivarez (Artur Berton)ning fojia bilan yakunlanadi.

Etel Lilian Voynich asarga hissiy buyoqdorlik berish, ekspressivlikni ifodalash maqsadida lisoniy tasviriy vositalar va figuralardan unumli foydalanadi. Salbiy va ijobiy obrazlarni, voqea-hodisalarni, tabiat manzaralarini tasvirlashda stilistik vositalarni ishlaydi.

Romanda muallif barcha badiiy lisoniy tasvir vositalari va figuralardan ustalik bilan foydalanadi, xususan aposiopsis vositasi romanda salmoqli o'rin egallaydi. Artur Voynich Italiyani tark etishi, uning keyingi hayotining kitobxona noma'lumligi, asar voqealari jarayonida u haqida hech qanday xabar berilmasligi-bularning barchasi ushbu stilistik vositalarning ko'rinishlaridir. 13 yildan so'ng So`naning asar sahnasiga chiqishi, Arturga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarni unda aks ettirish

orqali muallif kitobxonni bir oz fikrlashga, So`na bilan Artur o`rtasida bir oz o`xshashlik

borligi haqida faraz qilishga undaydi. Asar so`ngida esa muammolar yechimi berilgan.

Muallif romanda kishini hayratda qoldiradigan obrazlar yaratdiki, ular kishi tasavvurida o`sha voqea tasviri yoki personajlarning o`ziga xosligini yaqqol chizib qo`ya qoladi. Muallif romanda maqollar va frazeologik iboralardan juda ko`p va o`rinli foydalanadi. Mazkur asarda ko`plab o`rinli va ustalik bilan ishlatilgan iboralar, maqollar roman tilining mohiyatiga milliy kolorit, badiiy ta'sirchanlik bergan:

Ask no questions and you will be told no lies [36,97]. But half a loaf is better than no bread [36,108]. It is safer to have four eyes than two [36,108].

Voynich badiiy iboralarni o`rni bilan o`ziga ishlatga, o`rni bilan ularni qayta ishladi: (truth`s a dog must be kept in the Kennel- haqiqat zanjirda saqlanish kerak bo`lgan it) va asar to`qimasidan ajralmaydigan uzviy bir qismga aylantirdi. Bu bilan romanning tilini boy, milliy va hayotiy qildi. Ushbu maqollarning asarda ishlatilishi muallifning xalq og`zaki ijodini yaxshi bilgani va ularni to`g`ri talqin qila olganligidan dalolat beradi. Asarni ish jarayonida kitobxon shunday xulosaga keladi.

Voynich manzara yaratishda nihoyatda mohir rassom. Uning bu sohadagi mahorati "So`na" romanidagi Italiyaning ajoyib manzaralarini, Shveysariya tabiatini, ayniqsa, Alp tog`ini tasvirlashda yaqqol ko`zga tashlanadi:

Close beside them grew a rose - bush covered with scarlet hips one or two beloted clusters of creamy blossom still hung from an upper branch swaying mournfully and heavy with rain drops. On the green surface of the lake a little boat, with white wings faintly fluttering, rocked in the dewy bree. It looked as light and frail as a tuft of silvery dandelion sud flung upon the water [36,45]- Yonida qip-qizil gullarga ko`milgan atirgul qat ko`tirib turar edi. Kechikib qolgan bir qancha buz g`uncha yomg`ir tomchilari og`irlashtirgan baland shoxlarga osilib

yotilar edi. Ko`lning zumrad yuzida yengil, oppoq yelkanlarni mayin shabada shishirgan kichkina qayiqcha suzib borar edi. Qayiq suvga tashlangan bir dasta qum uni gul kabi yengil va mo`rt ko`rinar edi (38,22).

Bu misolda muallif tabiat tasvirini berishda obrazlikni ifodalovchi sifatlash va o`xshatishlarga foydalanib kitobxonga badiiy estetik zavq bag`ishlagan.

Tufts of wild parsley and columbine filled the cracks between the flagged footways and the wall in the middle of the courtyard was given up to ferns and matted stone crap. The rose had run wild and their straggling suckers trailed across the paths, in the box borders flared great red poppies. [36,45]

Yovvoyi ko`kat turlari plitalarning yoriqlarini to`lg`azgan va hovli o`rtasidagi quduqni qirq quloq o`rab olgan. Atirgullar holdan ketgan ularning bir-biriga o`ralgan uzun-uzun novdalari yo`laklarda o`rmlashib ketar edi. [38,22]

Jo`yatlarda katta-katta lolaqizg`aldoqlar qizarishib ko`rinar edi (38,7) .

Bu parchada institut bog`ining tasviri berilgan. Muallif bunda yovvoyi nafis gullarni tasvirlash orqali o`zining qahramoni Arturning hali yoshligi uning xarakterida ham yovvoyilik xislatlari borligini ko`rsatmoqchi bo`lgan. Voynich romanida bir necha detal vositasida tabiatning xarakterli xususiyatlarini chizadi, ba'zan esa bu xususiyatlar asar mazmuni uchun xizmat qilgan holda metaforaning ajoyib obraziga aylanadi.

The great pine trees, dusky in the gathering shades of evening, stood like sentinals along the narrow banks confining the river. Presently the sun, red a glowing cool, dipped behind jagged mountain peak and all the life and light deserted the face of nature [36,46].

Bunda qorong`ulik cho`kish va tunning kelishi mohirona tarzda tasvirlangan. Uslubning layoqatlab bo`lishida tasviriylik va emosionallik kata rol o`ynaydi. Badiiy asar tilining aniq bo`yog`li emosional bo`lishida iste'moldagi so`zlardan foydalanish bilangina chegaralanmay uning rang barang ma'nolaridan ustalik bilan foydalanishda ham ko`rinadi. Voynechning "So`na" romani badiiy tasvir vositalarga juda boy dedik . Yuqorida buning dalilini muallif tomonidan

ishllanilgan o`xshatish, epitet ,metofora, metonimiya va boshqa shunga o`xshash vositalarda ko`ramiz. Personaj va manzaralarning o`ziga xos belgilarini kitobxon ko`z oldida gavdalanitira oladigan epitetlarni romanda tez-tez uchratamiz. Muallif tomonidan ishlatilgan epitetlar ko`proq ob'ektiv xususiyatlarni aks ettirishi va ekspresivlikning quyuqligi bilan arakterlanadi: But there was a light enough to show the ghastly paleness of Montanelli`s face[36,9]- Lekin Montalenining o`likligisingari qonsiz yuzini ko`rib, bo`lmaydigan darajada ham qorong`u tushmagan edi [38 9bet].

The punishment cell was a dark, damp, filthy hole underground[36]. Karser ichi qorong`u zax va toiat qilib bo`lmaydigan darajada iflos edi. They went out into the still, shadowy, cloister garden [36,45].- Ular jimjit, salqin monastir bog`iga chiqdilar.

But at the first sight of the glaring, white-streets and dusty, tourist crammed promenades, a little frown appeared on Arthur`s face [36,13] . Ammo Artur tusristlar bijillab yotgan chang ko`l bo`ylarini va ko`zlarini qamashtiradigan oppoq ko`chalarni ko`rdi-yu qosh- qovog`i tushti - qoldi. But he wrenched it away and faced them suddenly with the eyes of an angry wild beast [36,189].

In the little parlour she found a clumsy looking man standing with his heels together in the middle of the floor [36]. Jemma kichkina mexmonxonaga kirganda o`rtada beso`na`qay bir kishi qaqqayib turganini ko`rdi.

- He is an odd creature.

The frenzied laughter died on Arthur`s lips [36,47].

Arturning telbalarcha kulgisi birdan to`xtadi [38, 68 bet].

With such a cunning fox as Rivarez one cannot be careful [36].

Keltirilgan misollardagi epitetlarni tushirib qoldirsak ham (there was a light enough to show Montanelli`s face, In the parlour she found a man standing in the middle of the floar, They went out in to the garden) ma'no anglashilaveradi. Ammo yuqoridagidek tasvir aniq , ravshan emosional va ishonchli bo`lib, ko`z oldimizda gavdalanmaydi.

Voynich "So`na" romanida epitetlarni ko`pincha ijobiy yoki salbiy qahramonlarni atroflicha aniqlash uchun ularning o`ziga xos xarakterli belgilarni ajratib ko`rsatish uchun ishlatiladi. Ushbu tasviri vositadan foydalanish roman qahramonlarining portretlarini chizishda tabiat manzaralarni yaratishda ko`zda yaqqol tashlanadi.

Muallif qahramonlarning tashqi qiyofasini tasvirlashda va ularning nutqini shu qiyofaga moslashtirishga usta. Masalan Arturning tasviri bilan uning nutqidagi bog`liqlikni misol keltirish mumkin:

He was a slender little creature, more like an Italian in a sixteenth century portrait than a middle-class English lad of the thirties. From the long eyebrows and sensitive mouth to the small hand and foot, everything about him was too much chiseled, overdelicate. Sitting still, he might have been taken for a very pretty girl masquerading in a male attire, but when he moved, his little agility suggested a tame panther without a claws [36,7]. U o`rta miyona bo`yi, nozik, mo`rt ko`rinishi bilan o`rta hol ingliz oilasidan chiqqan. O`ttizinchi yillardagi o`spirindan ko`ra o`n oltinchi asr Italiyalikka ko`proq o`xshar edi . Uzun qoshlari ser harakat , asabiy og`zi, ishlari, oyoqlari hamma yog`i haddan ziyod xushbichan, nafis edi . Jim o`tirgan kezlarida, erkakcha kiyingan yaxshigina qizaloq ekan o`ylash mumkin. Ammo, u yengil harakatlari bilan ishlga o`rgatilgan lekin tirnoqlarni ko`rsatadigan qoplonni eslatardi. [38,6] .

Bu misolda yozuvchi epitetlarni qo`llash orqali Arturning yoshligidagi portretini chizadi, uning ma'naviy qiyofasini, unga munosib bo`lgan salomatini bera olgan. Bundan tashqari Arturning nutqi orqali chizgan portretini, yaratgan ma'naviy qiyofasini yanada to`ldiradi: "There is nothing to tell you, dear Padre, I have not bound myself, but I am bound"[36,18].- "Men sizga hech nima deyolmayman, qimmatli padre, men o`zimni hech nima bilan bog`lamaganman, lekin bog`langanman [38,22]."

Arturning tashqi qiyofasidagi nazokat kabi nutqida ham odob va samimiylikni ko`rish mumkin.

2.2. E.L.Voynichning ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("So`na" romani misolida).

Etel Voynich ``So`na romanida ekspressivlikni oshirish, va unga badiiy bo`yoqdorlik berish, asar tilini yanada jozibador qilish maqsadida ko`proq peyzaj tasvirida jonlantirish badiiy vositasidan unumli foydalangan. Masalan:

``He had given up beside the Mediterranean, and was accustomed to blue ripples; but he had a positive passion for swiftly moving water, and the hurried rushing of the glacier stream delighted him beyond measure. [36,38]

``U O`rta dengiz yaqinida o`sgani uchun ko`zlari moviy to`lqinlarga o`rganib qolgan edi. Lekin u tezoqar daryolarni jon-dili bilan sevar va muz tog`lardan shiddat-la oqib tushuvchi suvlar uni o`zida yo`q sevintirardi.`` [38,16]

Artur va ruhoniy Montanelli Shveysariyaning Alp tog`lari sayohatiga bir oz hordiq chiqarib, gaplashib olish maqsadida chiqishgandi. Artur tabiatni shu qadar sevardiki, uning har bir jilvasidan zavqlanardi. Shiddat bolan oqib tushuvchi suv (the hurried rushing of the glacier stream) xuddi joni bordek uni sevintirardi (delighted him). Artur tabiat go`zalliklarini ko`rganda ularga mahliyo bo`lib qolar edi:

``He would lie for hours motionless in the dark, secret, echoing pine-forests, looking out between the straight, tall trunks into the sunlit outer world of flashing peaks and barren cliffs.`` [36,39]

``Artur har qanday sharpaga javob berguvchi qoramtir, sirli qarag`ayzorlarda soatlar bo`yi qimirlamay yotishga, quyosh yog`dulariga cho`mib, yaltirab turgan cho`qqilar va yalang`och toshlar dunyosiga baland, adl qarag`ay o`zaklari orasidan qarab yotishga tayyor edi.`` [38,17]

Bilamizki, javob berish, gapirish insonga xos xususiyat. Bu misolda muallif qarag`ayzorlarga shunday qobiliyatni mujassamlashtiryapti. Bunda Voynich o`rmonning aks-sado berishini nazarda tutyapti (echoing).

``High up on Monte Salvatore the window of some shepherd`s hut opened a golden eye. [36,45]

``Monte-Salvator tepaligida allaqanday bir uycha derazasi tilla ko`zini ochdi.``[38,22]

Bu misolda muallif uyning derazalarini jonlantiryapti. Jonli mavjudotlar ko`zini ochganidek, uy ham o`z ko`zlari sanalmish derazalarini ochishi kitobxonni yanada jalb etishi tabiiy. Bu misolda metaforani ham kuzatish mumkin, uy derazalari ko`zga (golden eye) o`xshatilyapti.

``The roses hung their heads and dreamed under the still September clouds, and the water plashed and murmured softly among the pebbles of the shore.`` [36,45]

``Atirgullar boshlarini solintirib, bulutli sentabr osmoni tagida mudrar, suv esa qirg`oq toshlariga urilib, mayingina chuldirar edi.``[38,22]

Voynich atirgullarni jonlantirib, ularning bosh solintirib (hung their heads) , insonlardek uxlashini, suvlarning chuldirashini ayta turib, roman tilining yanada ta`sirchan bo`lishiga erishgan.

``As he said the word a sudden flush went up to his forehead and died out again.`` [36,53]

``Artur mana shu bir necha so`zni aytganda, yuziga bir qon yugurdi-yu, yana tarqaldi.`` [38,31]

Artur ayni paytda Italiyani qanday ozod qilish mumkinligi to`g`risida gapirayotgandi. Shu paytda uning yuzlari qizarganini muallif ``yuziga qon yugurdi`` (a sudden flush went up to his forehead) iborasi bilan ifodalgan. Bu misolda qo`llangan jonlantirishdan Arturning Italiyani ozod etishga qanchalik jon kuydirayotgani, uning taqdiriga befarq emasligini anglash mumkin.

``I think nothing; I am haunted with a horrible fear. Tell me, is there any special danger?`` [36,55]

``Hech narsa istamayman. Meni yomon bir vahima qiynayapti xolos. To`g`risini ayt: boshingda biron xatar bormi?`` [38,33]

Montanelli bu gaplarni Arturdan shubhalanayotgani uchun aytadi, va uni vahima bekorga qiynamaydi, chunki Artur Italiya ozodligi yo`lida ish boshlagan ``Yosh Italiya`` nolegal tashkilotiga a`z obo`lganini hammadan yashirayotgandi. ``Vahima`` (fear) mavhum ot sanaladi. Yuqoridagi misolda u jonlantirilib, insonni qiynashi mumkinligi aks ettirilgan.

``All this had put Arthur into a state of rapturous anticipation, in which the wildest improbabilities hinted at among the students seemed to him natural and likely to be realized within the next two months.`` [36,58]

``Bu narsalarning hammasi Arturda shodiyona bir intizorlik kayfiyati tug`dirib bordiki, eng dahshatli narsalar ham unga tabiiydek, bajarilishi va yaqin ikki oy ichidayoq amalgam oshirilishi mumkindek tuyulardi.`` [38,37]

Talabalar orasida tarqalgan ovozarlar Arturni shodlantirayotgandi. U qandaydir yangilik, o`zgarish bo`lishini kutayotgandi.

``My son, if there is within you a new light, a dream of some great work to be accomplished for your fellow-man, a hope that shall lighten the burdens of the weary and oppressed, take heed how you deal with the most precious blessing of God.`` [36,61]

``O`g`lim, agar qalbingizni yangi bir nur yoritgan bo`lsa, agar qalbingizda og`a-inilaringiz baxti-saodati uchun ulug` ishlar qilish orzusi tug`ilgan bo`lsa, agar horigan-charchaganlar va ezilganlar yukini yengillashtishga umidvor bo`lsangiz, - o`ylab ko`ring: olloh-taoloning bebaho hadyasiga qaysi ko`z bilan qaraysiz?`` [38,40]

Orzu (dream), umid (hope) kabi mavhum otlarni jonlantirib, muallif asar tilining yanada ekspressiv bo`lishini ta`minlagan. Yangi tayinlangan ruhoniylar Kardi shu chiroyli so`zlarni Arturga ayta turib, unga o`zini do`stdek ko`rsatadi, lekin xiyonat qiladi. Tavba-tazrui qilishga kelgan soda Arturning ``Yosh Italiya`` nolegal tashkiloti a`zosi ekanligi haqidagi maxfiy sirni fosh etadi. Shundan so`ng

Arturda dinga, ruhoniylarga bo`lgan ishonch susayadi. Montanellining o`z otasi ekanligini bilgach esa dindan umuman voz kechadi.

``He had a sense of delight in the soft elasticity of the wet grass under his feet and in the shy, wondering eyes of the wild spring flowers by the roadside.``
[36,62]

``Oyoqlari ostidagi ho`l ko`katlarning yumshoqligidan va yo`l bo`yidagi yovvoyi bahor gullarining hurkayotganga o`xshab g`alati ko`ringanidan ichiga sig`may shodlanib bordi.`` [38,41]

Bu misolda Voynich bahor gullarini jonlantirib, ularda ``hayron boquvchi ko`zlar``ni mujassamlashtirgan (wondering eyhes), va kitobxon ko`z oldida shu gullarning jonli tasvirini yarata olgan. Shu gapni:

``He was glad to see grass and flowers under his feet``, deb berish mumkin, ammo muallif bo`yoqdor so`zlardan va turli badiiy vositalardan foydalanib, asar tilini boyitishga harakat qilgan. Badiiy uslubda ijod qilish aynan shunday mahoratni, so`zlarni o`z o`rnida qo`llay olish, boshqalarnikiga o`xshamaydigan o`xshatish-u, jonlantirishlarni topa olishni talab qiladi. Bunda obraz yaratish alohida ahamiyatga ega. Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqi ham shunda ko`rinadi. Unda neytral so`zlardan ko`ra badiiy bo`yoqdor so`zlarga ko`proq murojaat qilinadi. Zero, adabiyot inson his-tuyg`ulari bilan chambarchas bog`liq.

``A blind, senseless , wild-beast fury was beginning to stir within him like a live thing.``[36,76]

``Basir g`azab, xuddi joni bordek, ichida qimirladi.``[38,55]

Bu gap bilan muallif Arturning g`azab otiga minganini ifodalagan. G`azabni basir deya sifatlab, ma`noni yanada kuchaytirgan. Artur polisiya idorasiga keltirilgach, uning Franchesko Keriga va yana bir do`stiga yozgan maxfiy xatlarini ko`rsatishganda u shunday ahvolga tushgandi.

``... and there the fortress scowling across the strip of dirty water.`` [36,90]

``Ana qal`a iflos suv yuzida xo`mrayib turibdi.`` [38,70]

Ma'lumki, xo'mrayib turish insonga xos xususiyat. Jonsiz qal'aga (fortress) ga bunday jonlantirish (scowling) ni qo'lliyotgan muallif Arturning qamoqdan qochish sahnasini tasvirlayapti. Bu gapdan qamoqqa xos bo'lgan salbiylik, qorong'ulik nafasi seziladi.

``Just now it's smooth enough and, of course, the reactionists all over Italy will lie quiet for a month or two till the excitement about the amnesty blows over.``
[36,102]

``Amnistiya munosabati bilan tug'ilgan shodu-xurramlik to'lqinlari bosilguncha, Italiyadagi hamma reaksionerlar bir-ikki oy jim o'tirishadi, albatta.``
[38,81]

13 yil o'tgach, Feliche Rivarez nomi bilan asar sahniga chiqqan yigit-o'sha, bir vaqtlar o'zini ``o'ldi``ga chiqarib, yurtidan bosh olib ketgan Artur edi. Endi u Florensiyada bir guruh odamlar bilan majlisda siyosiy ishlar rejasini hal qilish uchun yig'ilgandi. Shu majlisda Neapolli kishi tilidan aytilgan bu gapda ``shodu-xurramlik to'lqinlari`` (excitement) jonlantirilyapti (blows over)....

``Since then, long experience had convinced him that this clumsy human bear was no fair-weather friend.`` [36,110]

``Ana o'shandan beri oshirgan tajribasi bu ayiqqa o'xshagan beso'naqay kishining suyansabo'ladigan do'st ekaniga uni uzil-kesil ishontirdi.`` [38,90]

Sinyora Bolla haqida aytilgan bu gapda Martiniga ishora qilingan. Tajriba (experience) jonsiz bo'lsa-da, insonni ishontirish xususiyatiga ega. Martini Sinyora Bolladan xabar olib turar, bolasi o'lib, eri o'lim to'shagida yotganida aynan Martini Devonshirga tez-tez kelib turib, Sinyoraga dalda berib turardi. Mana shunda orttirilgan tajribalar Sinyora Bollani Martinining ishonchli odam ekaniga ishontirdi.

``Gemma's friendship, her grave unconsciousness of the charm she exercised over him, her frank and simple comradeship were the brightest things for him in life that was none too bright.`` [36,111]

``Jemmaning do`stlarcha muomalasi, Martinini o`ziga ilhaq qilgan jozibasini oq ko`ngillik bilan gumon qilmaganligi do`stligining soda va astoydilligi - bularning hammasi Martinining sevinch va quvonchlardan yiroq hayotiga nur berardi.`` [38,92]

Bu misolda do`stlik(friendship), joziba(unconsciousness of the charm), astoydillik(frank comradeship ) jonsiz ob`yektlari jonlantirilib, kishi hayotiga yorug`lik, nur baxsh etishi ifodalangan.``o`ziga ilhaq qilgan joziba``(grave unconsciousness of the charm she exercised over him) birikmasida jonlantirish vositasi qo`llangan.

``She possessed, without knowing it, the rare gift of consolation; and when two years ago, his dearest friends had been betrayed in Calabria and shot down like wolves, her steady faith had been perhaps the thing which had saved him from despair.`` [36,112]

``Jemma odamlarni yupatish masalasiga, garchi buni o`zi sezmasaham, kamdankam iste`dodga ega edi; ikki yil bundan avval Martinining eng jonajon do`stlari Kalabriyada xiyonatkorona tutib berilib, keyin xuddi bo`rilarni otganday otib tashlaganlarida, uni jar yoqasidan saqlab qolgan narsa faqat Jemmaning mustahkam irodasi bo`lgan bo`lsa ajab emas.`` [38,92]

Muallif iroda (faith) so`zini jonlantirib, Jemma Martinini jar yoqasidan o`zining mustahkam irodasi bilan saqlab qolganini aytmoqchi bo`lgan.

``At the further end of the terrace stood a row of palms and tree-ferns, planted in large tubs which were hidden by a bank of lilies and other flowering plants.`` [36,116]

``Ayvonning oxirida katta-katta tuvaklarga o`tqazilgan xo`rmo va zo`ryaproq o`simliklar qatori cho`zilib ketar, lekin safsar gullar va boshqa gullovchi o`simliklar gulshani panalab olgan edilar.`` [38,97]

Bu misolda safsar va boshqa gullar daraxtlarni yashirishi (hidden by) ularga jonli mavjudotdek qarashga undaydi. Voynich gullarga jon bag`ishlab, peyzaj tasvirini go`zal uslubiy vositalar bilan boyitganiga guvoh bo`lamiz.

``The branches of a pomegranate tree, clustered with late blossoms, hung beside the narrow opening between the plants.`` [36,116]

``Kechki gullarga ko`milgan va o`simliklar orasidagi torgina yo`lni to`sib turgan anor shoxlarini qayirib, u yerga o`tsa bo`lardi.`` [38,97]

Anor shoxlari (the branches of a pomegranate tree), kechki gullar (late blossoms) jonlantirilgan bu gap orqali kitobxon ko`z oldida shu sahnaning jonli tasviri namoyon bo`ladi. Kishi shu tabiat go`zalligini o`zicha tasavvur qilib ko`radi, o`zini shu bog` ichiga tushib qolgandek sezadi. Chunki, Voynich jonlantirish uslubiy vositasidan shu qadar ustalik bilan foydalanganki, u tasvirlayotgan jonsiz narsalarning jonlanib ketganiga bevosita ishongingiz keladi.

``Presently the sounds of voices and footsteps approaching along the terrace roused her from the dreamy state into which she had fallen.`` [36,116]

``Uni mudroq bosa boshlaganda ayvonda yaqinlashib kelayotgan oyoq dupuri bilan ovozlari ko`zlarini ochirib yubordi.`` [38,97]

Jemma o`zining qayerdaligini hech kim payqamasin deb anor shoxlari to`sgan tor yo`lakchaga o`tib olgandi. Bir oz mudrab qolganda uni oyoq dupuri va ovozlari uyg`otib yubordi. Bu misolda oyoq dupuri va ovozlari (the sounds of voices and footsteps) jonlantirilgan.

``The question distressed her, bringing up old and miserable associations.`` [36,131]

``So`naning savoli uning qalbida eski, og`ir xotiralarni uyg`otgan edi.`` [38,114]

So`naning savoli Jemmani qiynab qo`ygandi (distressed), uning qalbida eski xotiralarni uyg`otgandi (bringing up). Bu yerda muallif oddiy bir savolni (the question) jonlantirib, o`z qahramoni ruhiyatini bayon etishda jonlantirish badiiy vositasidan foydalangan.

``His visit caused a little flutter of excitement throughout the town.`` [36,132]

``Uning kelishi shaharda sezilarli hayajon uyg`otdi.`` [38,114]

Montanellining florensiyaga qaytib kelishi kishilarning hayajoniga sabab bo'lgani haqidagi bu misolda jonlantirish qo'llangan. (his visit caused excitement)

``The nomination of Cardinal Gizzi to the Roman State Secretaryship in place of the universally detested Lambruschini had raised the public enthusiasm to its highest pitch.`` [36,132]

``Hamma yomon ko'radigan Lambruchinining o'niga kardinal Gissining Rim davlat sekretari qilib tayinlanishi hammaning ruhini ko'tarib yubordi.`` [38,115]

Bu gapda ham personajlarning ruhiy holatini tasvirlashda jonlantirish vositasidan faodalanilgan. Lambruchinining o'niga Montanelli Rim davlat sekretari etib tayinlanishi xalq ruhiyatini ko'tarib yuborgani (raised the public enthusiasm) bunga misoldir.

``The inspired look that his face had worn in the Cathedral had faded quite away and the sunlight showed the lines of care and fatigue.`` [36,137]

``Cherkovda chehrasini porpiratib turgan ilhom endi tamom yo'qolgan va uning o'nini horg'inlik bilan ezginlik olgan edi.`` [38,120]

Montanellining kayfiyati tasvirlanayotgan ushbu misolga nazar tashlasak. Va'zni o'qib bo'lgach, endi quyosh nurlari uning yuzida horg'inlik bilan ezginlik borligini ko'rsatishi (sunlight showed the lines of care and fatigue), ilhom uning yuzini tark etgani (the inspired look faded away) Montanellining charchaganidan dalolat beradi.

``His savage attacks upon Montanelli had annoyed even his admirers.`` [36,140]

``Montanelliga quturib qilgan hujumlari eng otashin muxlislarini ham bezdirib yubordi.`` [38,123]

So'na Florensiyaga kelgach, hajviy asarlari-yu, karrikaturalari bilan Montanellini masxara qilishga urinardi. Lekin uning bu hujumlari (attacks) o'ziga zarar qildi, muxlislarini undan bezdirib (annoyed), komitet a'zolarining to'rtidan uch qismi Martini tarafga o'tib ketishiga sabab bo'ldi.

``The moderate division – including, of course, Grassini - feared that over-emphatic tone might irritate rather than convince the ministry.`` [36,143]

``O`rtaroq oqimdagi qism esa, shu jumladan, albatta, Grassini ham, xitobnomaning qattiq ohangda yozilishi hukumatni yo`lga solmaydi, balki jahlini chiqaradi, deb qo`rqar edi.`` [38,127]

Toskandagi ochlikning oldini olish maqsadida varaqa chiqarish masalasini muhokama qilayotgan majlis a`zolari hukumatga xat yozishni tavsiya etishadi. Lekin, uning qattiq ohangda (over-emphatic tone) yozilishi hukumatning jahlini chiqaradi (irritate) degan qarorga kelishadi. Bu misolda ohang (tone) jonlantirilgan.

``The dim evening light, falling on his face, seemed to soften away its hard, mocking, self-assertive look, and to deepen the tragic lines about the mouth.`` [36,179]

``Kechki xira yorug` yuziga tushib, siymosidagi dag`allik, mazaxlik va xudbinlik alomatlarini yumshatar, og`zi tevaragida fojiali hayoti qoldirib ketgan tirishlarini bo`rttirib ko`rsatar edi.`` [38,163]

Bu misolda xira yorug` (the dim evening light) ga yumshatish, bo`rttirib ko`rsatish xususiyati berilib, jonlantirilgan.

``By some fanciful association of ideas her memory went vividly back to the stone cross which her father had set up in memory of Arthur, and to its inscription: ``All thy waves and billows have gone over me.`` [36,179]

``Jemma allaqanday fikrlar jarayoni orqasida, Artur xotirasi uchun otasi qo`ygan tosh krestni va unga: ``Hamma to`lqinlar va dovullar mening ustimdan o`tdi, deb yozilgan lavhani esladi.`` [38,163]

Jemmaning xotirasi (memory) bir dam tarixga qaytdi (went back) va tosh krestni esladi.

Bu misollarda Voynichning naqadar iste`dodli yozuvchi -, mahoratli romannavis ekanligini sezish mumkin.

Umuman olganda, nafaqat, Voynich, balki haqiqiy ijodkor, inson qalbi va ongiga yeta oladigan darajada fikrlarini bayon qila olishini namoyon etsagina va o'z g'oyalarini kitobxon ko'ngli va qalbiga singdira olsagina, uni o'z qahramonlari bilan birga yashashga majbur eta olsa, ana shunda, aytmoqchi bo'lgan fikrlariyu, g'oyalarini, insonlarga yuqtirishi, ularning qalbi orqali ongiga singdira olishi mumkin. Voynich ijodida mana shu ajib noziklik, boshqalarga o'xshamagan bir topilmalari borki, u kitobxonni o'z qahramonlari bilan birga yashashga majbur etadi.

III BOB. A.Cho'lponning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy tasvir vositasidan foydalanishdagi mahorati ("Kecha va kunduz" romani misolida).

3.1. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ko'p qirrali iste'dod sohibi edi. Birinchi navbatda u hassos shoir sifatida tanilgan va o'zbek she'riyatida tom ma'noda yangi ufqlar ochgan. Ayni chog'da, uning o'zbek teatri va dramaturgiyasi, yangi o'zbek realistik nasri, badiiy tarjima, publitsistika, tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlari ham beqiyosdir. Cho'lpon ehtirosli va yoniq asarlari bilan o'zbek xalqining milliy ongini uyg'otishda, uning yangicha ma'naviyatini shakllantirishda katta rol o'ynadi va chin ma'noda umumxalq shoiri, milliy san'atkor darajasiga ko'tarildi. Afsuski, Cho'lpon ham xalqimizning boshqa ko'pgina asl farzandlari kabi Stalin qatag'onining nohaq qurboni bo'ldi – u 1938-yilda "xalq dushmani" sifatida otildi, asarlarini nashr etish, nashr etilganlarini o'qish va umuman Cho'lpon nomini tilga olish qat'iyan ta'qiqlandi. Faqat 1956-yilda Stalin shaxsiga sig'inish oshkora qoralangandan keyingina Cho'lpon oqlandi, lekin shundan keyin ham yana 30 yil mobaynida uning asarlari nashr etilmadi, ijodi o'rganilmadi, uni adabiyotdagi o'z o'rniga qaytarish ishi paysalga solib kelindi. 80-yillarning o'rtalarida mamlakatda qayta qurish va oshkoralik jarayoni boshlangach, o'zbek xalqi yana bir bor milliy

uyg`onish pallasiga qadam qo`ygach, ayniqsa, O`zbekiston mustaqillikka erishgach, Cho`lpona nisbatan yo`l qo`yilgan adolatsizlik barham topa boshladi. Qisqa muddatda uning ``Bahorni sog`indim``, ``Yana oldim sozimni``, ``Adabiyot nadur`` degan kitoblari, uch jildlik saylanmasi bosildi, teatr sahnalarida dramalari qo`yila boshlandi. ``Kecha va kunduz`` romani asosida videofilm yaratildi, shoir to`g`risida turli-tuman maqolalar va risolalar e`lon qilindi, uning hayoti va ijodini yorituvchi hujjatli film dunyoga keldi, muntazam bo`lmasa hamki Cho`lpon kunlari o`tkazila boshlandi. Cho`lpon ijodining turli qirralari haqida dissertatsiyalar himoya qilindi, Abdulla Qodiriy va Fitrat bilan birga Cho`lpon ham Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofoti bilan taqdirlandiki, bu ham xalqimizning ulug` san`atkor xotirasiga katta ehtiromidan nishonadir.

Cho`lponning qaytishi adabiyotimiz tarixidagi katta kemptikni to`ldiradi, uning asarlari esa adabiyot bosib o`tgan murakkab yo`llar haqidagi tasavvurimizni boyitibgina qolmay, bugun ham bizga juda katta estetik zavq bag`ishlaydi. Ular insoniy mazmunning teranligi, umumbashariy g`oyalarni baland pardalarda kuylagani bilan bir qatorda, chinakam san`at namunalari sifatida ham biz uchun g`oyat ardoqlidir.

``Cho`lpon``, ``Qalandar``, Mirza Qalandar``, Andijonlik``, ``Q`` kabi taxalluslar bilan ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon 1897-yilda Andijonda tug`ilgan. Onasi Oysha aya o`qimagan, uy bekasi bo`lsa-da, zehni o`tkir, farosatli, xalq ijodini yaxshi biladigan ayol edi. Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o`g`li esa bazzoz sifatida tanilgan odam bo`lgan. Ayni chog`da u juda betavfiq, xudojo`y, o`qimishli bo`lgan va ``Rasvo`` taxallusi bilan tasavvufona g`azallar ham yozib turgan. Cho`lpon eski maktabda savod chiqardi. U bolaligidanoq bilimga tashnaligi, har narsaga qiziquvchanligi, zehni o`tkirligi bilan ajralib turgan. U eski maktabda o`qir ekan, arab va fors tilini puxta o`rganadi. Qur`oni karimni yod oladi, islom tarixi va islom falsafasini o`zlashtiradi, sharq adabiyotini chuqur egallaydi, keyinroq esa turk tili bilan turk

adabiyotini o`rganadi. Zamona zaylini yaxshi tushunga Sulaymon ota o`g`lini Andijondagi rus-tuzem maktabiga ham beradi. Cho`lpon bu yerda rus tili va rus adabiyotini o`zlashtiradi, rus tili yordamida esa Yevropa madaniyati va adabiyoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladi. Shunday qilib, Cho`lpon 15 yoshlaridayoq bir nechta tilni puxta o`zlashtirgan, har tomolama chuqur ma`lumotga ega bo`lgan, hayotga chuqur nazar bilan qaray oladigan, ochiq fikrli, yangilik izlovchi yigit bo`lib yetishgan. Otasi o`g`lining mudarris bo`lishini, ruhoniylar safidan o`rin olishini istagan edi, ammo Cho`lpon bu yo`ldan borishni xohlamaydi – u ``o`zbek milliy yozuvchisi`` bo`lishga ahd qiladi va Andijonni tark etib, Toshkentga keladi. Bu yerda maqolalar, she`rlar, hikoyalar yozib, gazeta hamda jurnallarga yubora boshlaydi. 1914-yilning 18-aprel kuni ``Sadoyi Turkiston`` gazetasida Cho`lponning ``Turkistonli qardoshlarimizga`` degan she`ri bosiladi; oradan 11 kun o`tgach shu gazetaning o`zida ``Qurboni jaholat`` nomli hikoyasi e`lon qilinadi. Shundan keyin Cho`lponning ``Adabiyot nadur?`` degan maqolasi, ``Do`xtir Muhammadiyor`` hikoyasi va yana boshqa asarlari e`lon qilinadi. Shu tarzda Cho`lpon 1914-yildan boshlab yangi o`zbek adabiyotining iste`dodli yosh vakili sifatida tanila boshlaydi. Ba`zi bir zamondoshlarining eslashicha, uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va hatto Boqchasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. Ammo, afsuski, adabiyotshunoslar hozircha Cho`lponning har xil nashrlarda sochilib yotgan asarlarini topib, bir joyga to`plab, e`lon qilishga ulgurganlari yo`q. Bu ish kelgusining muhim vazifasi bo`lib turibdi. (44,340)

Cho`lpon ijodining ilk davridagi asarlar bir mushtarak xususiyatga ega – ular qaysi janrga mansubligidan yoxud badiiy saviyasining qay darajada ekanidan qat`iy nazar, jadidchilik g`oyalari bilan sug`orilgan asarlardir. Bu tabiiy bir holdir. Cho`lpon 16 yoshida yozgan ``Adabiyot nadur`` maqolasida adabiyotning jamiyat hayotidagi o`rni haqida fikr yuritir ekan, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma`naviyatini ta`minlovchi omil degan g`oyani ilgari suradi. Cho`lpon bu xulosaning chinligiga shu qadar ishonganki, maqolada e`tirozga

o`rin qoldirmaydigan qat`iyat bilan ``adabiyot yashasa - millat yashar`` deya xitob qiladi. ``Ha, to`xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo`lsa, maishat yo`lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o`lmag`on va adabiyotning taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o`ydan, fikrdan mahrum bo`lib qolib, sekin-sekin inqiroz bo`lur``.

Bugun ham qimmatini yo`qotmagan teran mulohaza. Tabiiyki, yosh munaqqid bunday xulosaga jadidchilik mafkurasining ta`sirida kelgan.

Cho`lpon ``Yangi Sharq`` gazetasida ishlab yurgan kezlari, 1920-yilda ``Yorqinoy`` nomli ertak-pyesa yozgan va bu nasar 1921-yili Mannon Uyg`ur truppassi tomonidan sahnaga qo`yilgan edi. Shoir 1924-yili ``Darxon`` gazetasi tugatilib, yana Toshkentga ko`chib kelganida, milliy o`zbek teatrini tashkil etish bo`yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda edi. Shu yili respublika rahbarlari tashabbusi bilan 24 nafar ite`dodli yigit va qizlar Moskvada, O`zbek maorif uyida tashkil etilgan teatr-studiyaga o`qishga yuborildi. Cho`lpon o`zbek dramstudiyasi faoliyatida tarjimon va daramaturg sifatida qatnashdi. U 1924-1926-yillarda Moskvada malakali o`zbek san`atkorlarning shakllanishi va bo`ljak Hamza nomli taetrning tashkil topishida mislsiz katta rol o`ynadi. Ayrim manbalarga qaraganda, u o`sga yillari Moskvadagi V.Bryusov nomidagi institutda tahsil ham ko`rdi.

Cho`lpon hayotining ana shu sahifasi uning keyingi ijodida chuqur iz qoldirdi. U Moskvadalik paytida ham, keyin ham o`zbek teatri uchun ko`plab asarlarni tarjima qildi, o`zi ham ``Mushtumzo`r``, ``O`rtoq Qarshiboyev``, ``Hujum`` (Vasiliy Yan bilan hamkorlikda), ``Hijrat`` (qo`yilmay qolgan) pyesalarini yozdi, ``Yorqinoy``ni qayta ishlab berdi.

30-yillarda matbuotda Cho`lponga qarshi maqolalar tinimsiz chiqq boshlagach, shoir 1932-yilda Moskvaga ko`chib ketib, jon saqlab qoladi. 1935-

yilning boshlarida esa Toshkentga qaytib, Hamza nomli teatrda adabiy emakdosh bo`lib xizmat qiladi.

Cho`lpon 20-yillarning o`rtalarida ham she`riy, ham nasriy, ham dramatik ijod bilan faol shug`ullandi. ``Buloqlar``(1922), ``Uyg`onish``(1923), ``Tong sirlari``(1926) she`riy to`plamlarini, ``Oydin kechalarda``, ``Qor qo`ynida lola``, ``Novvoy qiz``, ``Oq podshoning in`omi` singari o`nga yaqin hikoyalarini, qator maqolalarini e`lon qildi. Ammo, 30-yillrda avj olgan tanqid va tahdid sharoitida uning asarlari bosilmay qoldi. Shundan keyin Cho`lpon ko`proq badiiy tarjima bilan shug`ullanishga majbur bo`ldi. Shekspirning ``Hamlet``, Pushkinning ``Boris Godunov`` va ``Dubrovskiy``, Gogolning ``Tergovchi``, Frankoning ``Feruza``, Gorkiyning ``Ona``, Andreyevning ``Osilgan yeti kishining hikoyasi`` va boshqa ko`plab asarlarni o`zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o`zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Shu bilan birga, u 30-yillarda ``Kecha va kunduz`` dilogiyasi (romanning ikkinchi kitobi topilmagan), ``Soz`` she`rlar to`plamini chop etdi. ``Teatru`` gazetasi va ``Mushtum`` jurnalida qatnashdi.

Buyuk ma`rifatparvar va serqirra faoliyat sohibi Cho`lpon 1937-yilda qamoqqa olinib, boshqa maslakdosh birodarlari bilan birga 1938-yil 4-oktabr kuni otib tashlandi.

Cho'lponning she'riy asarlari.Cho'lponning she'riy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning nihoyatda nozikta'b, kamtar, xokisor, oliyjanob, tabiat va kishilardagi go'zallikning kamalak ranglarini ko'ra biladigan, xalq va uning zarralari bo'lgan kishilarga ezgulik istagi bilan yashagan insonni ko'ramiz. Ana shu inson uning lirik qahramonidir. Odatda, har bir shoir lirik qahramon obrazida o'zining "men"ini, hayotdan olgan taassurotlari, his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalaydi. Cho'lpondan mustabid tuzum sharoitida yashagan shoirning faqat bir xil (tabiat yoki sevgi haqidagi) kechinmalarni ifoda etishi aslo mumkin emas. Negaki, uning hayotida baxt va saodat daqiqalaridan ko'ra, iztirob, g'am va alam og'ushida kechgan kunlar oz bo'lmagan. Mustabid tuzum uning va u mansub

bo'lgan xalqining boshiga ne kunlarni solmagan. Shunday ekan, Cho'lponning lirik she'rlarida ana shu murakkab tarixiy davrda yashagan kishining ruhiy olamidagi po'rtanalar o'z in'ikosini topmasligi mumkin emas edi.

Cho'lponning "Men shoirmi?" (1928) deb nomlangan she'ri 20- yillarda Toshkentdagi O'lka o'zbek bilim yurti o'qituvchilarining iltimosi bilan shoirning lirik tarjimayi holi sifatida yozilgan. Cho'lpon bu "lirik tarjimayi holi"da, o'qituvchilar xohlaganidek, o'z hayot yo'lini emas, balki hali shoirlik iqtidoriga erishmagan qalamkash sifatidagi kechinmalarini tasvirlagan. Agar har bir she'r tayanch so'zlar ustiga quriladi, degan fikrdan kelib chiqsak, bu she'rda xayol, jinni yurak, ko'lanka, sayr, qiynalish, go'zal holat, rassom, shoirik, soya so'zlari tayanch so'zlar sifatida gavdalanganini ko'ramiz. She'rda tasvirlanishicha, shoir - she'rning lirik qahramoni shunday xayolparast bir kishiki, uning xayollari falakka ko'tarilib, "bir zamon bir shirin joyga yetganda nariga o'tmasdan", to'xtab qoladi. Xuddi shu choqda unda qiynalish jarayoni boshlanadi:

Chunki xayolimning ko'zlari bilan

Bir go'zal holatni ko'rib turaman.

Lazzatga g'arq bo'lib, o'lib turaman.

U hOlni borliqning so'zlari bilan

Anglatish qo'limdan kelmay qoladir...

Lirik qahramonga, agar rassom bo'lganida, ana shu go'zal holatni tasvirlashi mumkindek tuyuladi. Lekin, modomiki, u shoir bo'la turib uni tasvirlashga ojiz ekan, demak, uningcha, shoirligi bamisoli soya kabi omonat hodisadir:

Shoirlik menda bir soyami, deyman,

Har bir tushunchamni yoza olmagach,

Rassomdek xayolga chiza olmagach,

Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman...

Cho'lpon bilim yurti o'qituvchilarining o'z tarjimayi holini yozib berish haqidagi iltimoslariga javoban shunday she'rni bitgan. Bu she'r, birinchidan, shoirning g'oyat kamtarin inson bo'lgani, ikkinchidan, o'z she'riy iste'dodiga shubha bilan

qaragani: Uchinchidan, xayolining har bir harakatini, xususan, o'sha "go'zal holat"ni rassom singari chiza olish mahoratiga erishish orzusida ekanidan dalolat beradi. Shu ma'noda bu she'r shoir ruhining muayyan bir holatdagi tarjimayi holidir.

Endi ana shu shoirning tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan she'rlarini ko'zdan kechiraylik. Avvalo, shuni ta'kidlash zarurki, Cho'lpon ohang va hamohanglikni, tabiat bilan inson ruhi o'rtasidagi garmoniyani yaxshi his etadi. Uning aksar she'rlarida vazn va qofiya tizimlariga izchil rioya qilganligining sababi ham shunda. Ammo shoirning "Bahorni sog'indim..." (1926) she'ri esa, boshqa she'rlaridan farqli o'laroq, sarbast vaznida yozilgan. She'r shunday satrlar bilan boshlanadi:

Bahorni sog'indim, bahorni...

Ko'rganda yerlar, olamlar to'la qorni,

Qor... qor-

Zaharli ninalar kabi

Ko'zlarga qarab oqar...

1926- yil sentabrida Samarqandda bitilgan bu she'rda chizilgan tabiat manzarasi faqat "ko'zlarga qarab nina kabi oquvchi" ana shu qor tasviridan iborat. Odatda sentabr oyida O'zbekistonda qor yog'maydi. Yoqqanda ham tez erib ketadi. Balki o'sha yillarda Samarqandda chindan ham qor yoqqan bo'lishi mumkin. Cho'lpon 1924- yildan 1926- yilning yoziga qadar Moskvada yashagani, rus qishiga va rus qoriga obdan to'ygani uchun ham issiq o'lkada bemahal yoqqan qor shoirda noxush bir kayfiyatni uyg'otgan. Buning ustiga, bu qor shunchaki oddiy qor emas, balki bahotni o'g'irlagan, bahorni odamzod ko'zidan yiroqlashtirgan qor edi:

Qaydasiz, qaydasiz

Latif siynalar kabi

Dalalarga singgan bahor?

Shoir bu satrlarga kutilmaganda kishida iliq bir kayfiyat uyg'otuvchi poetik obraz ("latif siynalar")ni olib kiradi. Lekin u fikrni shunday ifodalaydiki, dalalarni ham,

bahorni ham shu obraz vositasida idrok etamiz: “latif siynalar kabi dalalar”, “latif siynalar kabi dalalarga singgan bahor”. Keyingi bandda mavzu, yana kutilmaganda, o'zgaradi. Endi o'sha mudhish qor tufayli “g'amgin-g'amgin so'la boshlagan" ekin-tikin, "sarg'aygan yaproq" va bo'yanib o'la boshlagan" tuproq obrazlari ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi. Bu band tufayli kitobxonda kuchaya boshlagan ma'yus bir kayfiyat she'rning so'nggi bandida nekbini tuyg'ular to'lqini ("Yo'q, o'lim yo'qdir!..")ga urilib, chilparchin bo'ladi. She'r bunday satrlar bilan tugaydi:

Yo'q., o'lim yo'qdir!

Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir...

Bir o'chib, so'nib., yana yonish bor,

Yana bahorlar,

Yana lolalar,

Yana siz, ey., erkin tilaklar!...

Agar shoir oldingi bandda ekin-tikin, yaproq va tuproqning o'la boshlaganini ko'rib, izrtirob chekkan bo'lsa, endi u hayotning abadiyligi haqidagi falsafadan kelib chiqqan holda o'limning yo'qligi, balki "bir o'chib, so'nib., yana yonish bor" ligini aytib hayqiradi. Hayotning bu temir qonuni oldida boyagi qor erib ketgandek bo'ladi. Abadiyotning, tabiatdagi hayotbaxsh kuchning timsoli bo'lgan "latif siynalar" obrazining esa dalalarga tegishli ekani oydinlashadi. Lekin yuqoridagi parchani diqqat bilan qayta o'qisak, undagi "erkin tilaklar" obrazining she'r to'qilmasiga bejiz kiritilmagani ma'lum bo'ladi. Shoir bir o'chib, so'nib, yana yonayotgan hodisalarni, xilqatlarni tilga olar ekan, "Yana bahorlar, Yana lolalar, Yana siz, ey., erkin tilaklar!.." deydi, Bir o'chib, so'nib, yanayongan tilaklar nima? Shubhasiz, mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lish, mustaqil bo'lish, emin-erkin yashashdir. Cho'lpon 1921- yilda "Buzilgan o'lkaga" she'rida oshkora aytilgan bu tilaklarni 1926- yilda, mustabid sovet tuzumining tishlari qanchadan qancha kishilarni g'ajib o'tkirlashgan paytda ochiq ifodalay olmas edi. Agar shu haqiqatdan kelib chiqsak, she'rdagi qor obrazi mustamlakachi davlatning,

tuzumning, "latif siyna" esa dalalarning – ona diyorning timsoli o'laroq, ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Binobarin, Cho'lpon oddiy tabiat lirikasida ham o'z ijodining bosh g'oyasi - erk va hurriyat g'oyalarini tarannum etadi. Ammo bu g'oya oshkora yangramagani, balki she'r to'qilmasiga ustalik bilan singdirib yuborilgani uchun ushbu she'rni Cho'lpon tabiat lirikasining namunasi sifatida o'rganish joyizdir. "Kuz yomg'iri" she'ri esa o'sha yilning oktabr oyida Moskvada yozilgan: Bu she'r tabiatning rangin tasviri emas, balki qora qalam bilan chizilgan eskizidir. Biz she'rning yaratilish tarixini shunday tasavvur etamiz: Cho'lpon Moskvadagi bekatlarning birida, ehtimol, tramvayning kelishini kutib turganida kuz yomg'iri asta yog'a boshlaydi. Shoir yomg'ir tomchilarining daraxt yaproqlarini yuvib, so'ng yerga to'kilayotgani va chuqurcha hosil qilayotganini ko'radi. Chuqurchaga tushayotgan yangi tomchilar uni, xuddi chakich singari, ko'pirtirib yuboradi. Chuqurcha shoir tasavvurida jajji bir kulchaga aylanadi. Xayolning bu erkin o'yinidan zavqlangan va hatto, ilhomlangan shoir bunday falsafiy xulosaga keladi: "Tomchilar - Ko'klarning so'zlari Yerlarni qamchilar..." Ushbu She'r- garchand lirik eskiz shaklida qolgan bo'lsa-da. uning tugallanmasi bo'lgan yuqoridagi satrlar bizni o'ylashga majbur etadi. Shoir she'rdagi "jajji kulcha" obrazi yordamida yana ham moddiylashgan, hatto hayotbaxsh ma'no kasb etgan kuz yomg'irini "ko'klarning so'zlari" deb ta'riflaydi va bu obraz vositasida endi unga ilohiy ma'no ham bag'ishlaydi. Ayni paytda jonlantirish uslubiy vositasidan foydalanadi.

Cho'lpon "Men shoirmi?" she'rida o'zining rassom bo'lib tug'ilmaganidan afsuslangan edi. Endi bir o'ylab ko'ring: agar shu she'rda tasvirlangan tabiat hodisasini hatto mashhur bir rassom bir xil rang bilan eskiz tarzida chizganida, bu rasm bizni shunchalik o'ylantirgan va katta falsafiy ma'noni ifodalay olgan bo'larmidi?.. Cho'lpon ilohiy bir iste'dod egasi ediki, uning hatto yuqoridagi jajji bir she'rining ham tagida katta ma'no va mazmun qatlami yotadi. Har bir shoir ijodida intim lirika namunalari bo'lganidck, Cho'lpon ijodida ham qalbning nozik tuyg'u va kechinmalari tasvirini ko'ramiz. "Bir tutam sochlaring..." she'ri (1925)

avtobiografik mazmunga ega. Shoir ushbu she'rda muhabbat va vafo mavzuyini ruhiy kurashlar, ziddiyatli tuyg'u va kechinmalar to'lqinida yoritgan. Qisqa qilib aytganda, bu she'rda muhabbat dramasi haqqoniy hayotiy hodisa tasviri orqali ochiladi. Cho'lpon bu she'ri bilan har qanday muhabbat ham chin muhabbat emas, modomiki, hayotda tabiiy gullar bilan birga, qog'oz gullar ham mavjud ekan. Chin muhabbat bilan birga, soxta muhabbat ham bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Ammo biz o'quvchi e'tiborini she'rning mazmuniga emas, shakliga qaratmoqchimiz. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, she'r lirik qahramonning hayqirig'i tarzida, o'zi sevgan, biroq o'zining sevimli emasligini sezgan, shuning uchun ham sevimli ayol bilan o'zi o'rtasidagi ko'prikn yondirib yuborayotgan kishining faryodi tarzida yozilgan. Odatda bunday she'rlarda tasvirlangan tuyg'u va kechinmalar qanchalik samimiy va haqqoniy bo'lsa, ularni ifoda etish, usullari, ya'ni she'rning shakliy xushsiyatlari Shunchalik bir yoqlama va g'arib bo'ladi. Bunday she'rlar, asosan, tuyg'u va kechinmalar po'rtanasining shovqini bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi. Tahlil etilayotgan she'rda biz butunlay boshqa bir manzarani ko'ramiz. She'r uch banddan iborat bo'lib, dastlabki ikki band abab, so'nggi band esa abba tarzida qofiyalanadi. She'rda qabul qilingan 11 hijolik barmoq vazni ham, so'nggi banddagi qofiya tizimi ham Cho'lponning sevimli vazni va qofiyalash usulidir. Endi ana shu qofiyalarga nazar tashlasak, fikr va tuyg'uning mantiqiy harakatidan qofiyaning tabiiy ravishda tug'ilganini ko'ramiz. She'rning har bir satridagi so'nggi so'z o'z ohangdoshini topibgina qolmagan, balki qofiya bo'lib kelgan so'zlar she'rning tayanch so'zlari bo'lib ham keladi: qo'limda - qo'ynimda, siring - deding, taning - saning kabi. Ma'lumki, qofiya she'rning ichki musiqasini uyushtirib turuvchi Omillardan biridir. Uning tovush komponentlari aksar hollarda butun misra yoki bayt davomida tug'ilib, uning qofiya sifatida shakllanishida faol ishtirok etadi. Agar ushbu she'rni shu fikr nuqtayi nazaridan o'qisak, aksar satrlardagi tovush tovlanishlari qofiyani tayyorlabgina qolmay, she'rda ifodalanayotgan mazmunni ham sharhlab, uni o'z ohangi bilan kuchaytirib ham turadi. Mana, e'tibor bering:

Bir tutam sochlaring mening qo'limda,

G'ijimlab o'paymi yo tarab, yechay?

Bu satrlardagi g', j, ch tovushlari yechay qofiyasini ozmi-ko'pmi tayyorlash bilan birga, lirik qahramon holatida g'ijinish tuyg'usi paydo bo'lganini ko'rsatib turibdi. Shu bandning keyingi misralarida s tovushi takrorlanib kelib, keyingi bandda go'zal tashbeh hosil qilgan: "Sochilgan sochingday sochilsa siring..." Ana shu s tovushi she'rning ichki musiqasida faol ishtirok etadi, bu musiqaning turli ritm va ohanglar kasb etishini boshqarib turadi va, nihoyat, sir so'zidan o'ziga maskan topib, Shu sirning shifri o'laroq jaranglab turadi. Ko'ramizki, Cho'lpon lirik qahramon ruhiyatida yuz bergan po'rtanalarni tasvirlashda faqat tuyg'u va kechinmaning baland "parda"si bilan kifoyalanibgina qolmay, ularni ifoda etishda ham tasvirning turli usullari va vositalaridan katta mahorat bilan foydalangan.

Cho'lponning tanlangan asarlari birinchi marotaba rus tilida 2009-yil Moskvadagi Voskresenye nashriyotida chop etildi. Ushbu to'plam uning ``Kecha va kunduz`` romani, ``Yorqinoy`` pyesasi va 1915-1938-yillarda yaratilgan bir qator she'rlarini o'z ichiga olgan. Tanlangan asarlar Hamid Ismoilov tomonidan tarjima qilingan.

Shu yilning o'zida ``Kecha va kunduz`` romanining Stéphane A. Dudoignon tomonidan fransuz tiliga tarjimasi Fransiyada Bleu Autour nashriyotida chop etildi.

2008-yil Parijda chop etilgan O'zbekiston she'riyati antologiyasida («Anthologie de la poésie d'Ouzbékistan») Cho'lponning bir nechta she'rlari fransuz kitobxonlariga havola qilingan. Tarjimonlar Hamid Ismoilov va Jean-Pierre Balpe.

Cho'lpon ijodi bilan O'zbekiston Milliy Universiteti professorlari U.Normatov, N.Karimov, D.Quronov, B.Do'stqorayevlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Marhum olim, adib, tanqidchi, O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov Cho'lpon ijodini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan. Cho'lponga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Navoiy nomidagi Davlat

mukofoti berildi. Uning ``Kecha va kunduz`` romani asosida videofilm yaratilgan.

``Kecha va kunduz`` romanini yozish niyati qachon tug`ilgan va Cho`lpon qaysi yili, qaysi oy, qaysi kunda bu asarni yozishga kirishgan? Hozircha bu savolga aniq javob yo`q. Anig`i shuki, Cho`lpon asarni 1934-yilda yozib tugatgan – uning birinchi bobi 1935-yilda ``Sovet adabiyoti`` jurnalining yanvar sonida ``Konkursga kelgan materiallar`` ruknida ``Hamal kedi – amal keldi`` degan sarlavha bilan chop etilgan. Kitob holda esa ``Kecha va kunduz`` 1936-yilda nashrdan chiqdi.

Romanda adib o`zbek xalqining XX asr boshlaridagi hayotini badiiy gavdalantirishni maqsad qilib qo`ygan va bunga to`la erishgan – u Turkistonning zulmga, jaholatga, adolatsizlik, va haqsizlikka to`la hayotini ochib bergan. Cho`lpon katta san`atkor bo`lgani uchun ``o`tmish yomon – bugun yaxshi`` degan primitive sxema asosida ish olib borolmasdi. Bunday qilganda roman avvaldan belgilab qo`yilgan g`oyalarga illustratsiya bo`lishdan nariga o`tmas va bugungi kunda eskirib, qimmatini yo`qotib, hech kim o`qimaydigan holga tushib qolardi. Shuning uchun Cho`lpon xalq hayotini jamiki ranglari, soya va nurlari bilan ko`rstishga intiladi. U ijtimoiy hayotning eng chuqur qatlamlarigacha ko`z tashlaydi, uning pinhoni oqimlarini ko`z o`ngimizda namoyon qiladi, bu oqimlar qayoqqa ketayotganini, ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashib borayotganini, ``imperiya`` degani ichdan yemirilib kelayotganini badiiy tahlil qiladi. Shu tarzda roman shunchaki uch-to`rt qahramonning sarguzashtlaridan naql qiluvchi asar emas, Turkistonning tarixiy taqdirini badiiy ifodalagan asar darajasiga ko`tariladi. Unda chorizmning mustamlakachilik siyosati chuqur ochilgan. O`zbek xalqining erkinlik, mustaqillik haqidagi ideallari o`z ifodasini topgan. Eng muhimi shundaki, romanda bu ulug` g`oyalar yalang`och holda emas, balki asar to`qimasiga singdirib yuborilgan holda tasvirlangan.

``Kecha va kunduz`` romanining markazida Zebi, Akbarali, Miryoqublar turadi; ularning o`zaro munosabatlari, to`qnashuvlari, taqdirlari roman syujeti asosini tashkil qiladi.

O`zbek romannavisligi uzoq tarixga ega emas. O`zbek romannavisligi maktabi Abdulla Qodiriy romanlaridan keyingina tug`ildi. Agar Abdulla Qodiriy o`z romanlarini yaratishda jaded nasri va umuman Sharq adabiyotidagi nasr an`analariga tayangan bo`lsa, Cho`lpon ``Kecha va kunduz`` romanini yozishdan avval rus romannavislarining badiiy tajribalarini ham o`rgandi. Natijada u o`z romani bilan o`zbek adabiyotida paydo bo`la boshlagan realistic tasvir metodini yanada boyitdi. Uning romani o`zbek adiblarining bu metodni egallashlari yo`lida olg`a qo`yilgan jiddiy qadam bo`ldi.

Cho`lpon asarda romantik tasvir bo`yoqlarini chetlab o`tmagan. Ayniqsa, Zebining dastlabki hayoti tasvirida romantik bo`yoqlar taloshi balqib turadi. Lekin voqealar real hayot o`zaniga tushar ekan, bu bo`yoqlar sekin-asta, tonggi yulduzlar kabi so`nib, o`z o`rnini realistik tasvir vositalariga bo`shatib beradi. Yozuvchi tasvir etilayotgan voqealar muhitidan kelib chiqqan holda, katta ehtiyotkorlik bilan bo`yoqlar tanlaydi, tasvir vositalarini topadi.

Mana Zebining tashvishsiz, xushchaqchaq va xushnud kezlaridagi holati:

``...Zebi ``yor-yor``ni yolg`iz o`zi aytardi... Ot bu go`zal ovoznig shirin kuylari ostida boshini quyi solib, bo`ynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi... Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og`zidan chiqqan unlarni o`z qanotlariga mindirib allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar. Ho`...yiroqlarda pilpillab ko`ringan qishloq chirog`lari ham, tepadagi yulduzlar singari, shabada qanotlari bilan kelgan chiroylik unlearning zavqi bilan mast bo`lib yonardilar...``

Mana, Zebining boshiga tushgan tuhmat toshi kelib tekkandagi holati:

``Zebi bo`lsa, o`sha zaharlanish hodisasidan beri doim behush bir holda bo`linardi; uning miyasi birdan falajga yo`liqqan kabi edi. U butunbir so`roq, tergov, konvoy, sud va zakunchilarga ajib bir maqsadlik bilan – xuddi jonsiz

qarar; nimalar deyishni, o`zini nechik mudofaa qilishni, nima deb gap qaytarishni o`ylamasdi. Uning miyasida, miyasining ham allaqaysi olis bir burchida xira va tumanli bir fikr bor; u fikr shuncha olisda va xiraki, uning nimaligini anglayolmaydi bechora...`.

Bu ikki tasvirda ikki xil ohang, ikki xil bo`yoqlar, Zebining ikki xil siyrati bor. Ularning har biri Zebining o`sha paytdagi holatini aniq ifodalaydi. Kitobxon ana shunday tasvirlar orqali Zebining ichki olamiga kirib boradi, u bilan birga quvonib, u bilan birga iztirob chekadi. Bunday holat – qahramon bilan birga kechinish holati kitobxonda boshqa qahramonlarga nisbatan paydo bo`lmaydi. Zero, yozuvchi kitobxon e`tiborini, mehrini faqat Zebiga qaratgan, uning g`oyaviy niyati shu obraz orqali ochiladi. Shuning uchun ham kitobxon Akbaraliga ham, Razzoq so`figa ham nafrat bilan qaraydi: Qurvonbibiga achinadi, Miryoqub esa unda ziddiyatli tuyg`ular uyg`otadi. Kitobxonning qahramonlarga bo`lgan shunday faol munosabati yozuvchining tasvir mahorati tufayli yuzaga chiqadi.

Qahramonlarning nafaqat sajiyasi, balki portreti ham keskin farq qiladi; asarda bir-biriga o`xshash birorta qahramon yo`q. ulning nutqi ham har xil. Agar Razzoq so`fi umuman tilini ortiqcha ``qaltiratish``ni xohlamasa va bechora xotiniga ``Fitna`` deb murojaat etsa, Zebining tilida moyillik, go`zallik, itoatkorlik balqib turadi. Akbaralining nutqi o`zi singari qo`pol; noibning nutqidq aql va ayyorlik chapak chalib turadi. Miryoqubning nutqi esa o`zi singari o`zgaruvchan. Ana shu rang-barang nutqlar orasida muallifning voqealarni sharhlovchi, vaziyatni tahlil qiluvchi tili alohida ajralib turadi. Tasvir etilayotgan manzara yo qahramonga qarab, uning tilida yangi-yangi ohanglar – goh hazil-mutoyiba, goh piching, goh zavq-shavq shaloladek sharqirab turadi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, Cho`lpon rus va Yevropa adabiyoti, xususan, nasridan yaxshi xabardor edi. L.Tolstoyning ``Tirilish``, M.Gorkiyning ``Ona``, L.Andreyevning ``Osilgan yetti kishining hikoyasi`` kabi rus adabiyoti namunalarida qo`llangan yangi badiiy tasvir usullari va vositalari ushbu asarda

Cho`lponga qo`l keldi. Ayniqsa, ruhiy va sarguzasht romanlarga xos usullarning ``Kecha``da ilk bor qo`llanishi o`zbek adabiyoti uchun katta yangilik edi.

Shubhasiz, Cho`lpon bu usullardan muayyan badiiy maqsadda foydalandi.

Aytib o`tilganidek, Miryoqub – nihoyatda murakkab obraz. Uni yorqin salbiy qahramonlar guruhiga ham, Zebi yanglig` qahramonlar sirasiga ham kiritish qiyin. U ezgulik bilan tubanlik o`rtasida harakat qiladi. Agar u ``moviy ko`zli dilbar``ni, keyinchalik esa jadidni uchratmaganida, ehtimol, Akbarali va noib to`ralarning ``dum``i bo`lib yura berardi. Cho`lpon ana shu obrazga xos ziddiyatni bo`rttirib ko`rsatish niyatida sarguzasht va ruhiy romanlarga xos tasvir usullaridan mahorat bilan foydalangan.

Yozuvchining Miryoqub obrazini yaratishda bunday usullardan foydalanganining sababi shundaki, u o`z qahramonining tubanlikdan ezgulik sohiliga chiqib olishini va bu jarayonning g`oyat murakkabligini ko`rsatmoqchi edi. Afsuski, romanning ikkinchi kitobi hozircha topilmaganligi sababli biz uning ezgulik sohilidagi xatti-harakatlari haqida biror tasvvurga ega emasmiz. Holbuki, ``Kecha``da tasvirlangan voqealarning mantig`iga ko`ra, romanning ``Kunduz`` qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qrim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi.

``Kecha va kunduz`` romanining poetikasi, uslub va usullari, adibning inson tasviridagi mahorati yetarli darajada o`rganilganicha yo`q. Lekin shunga qaramay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, nasrimizning navqiron avlodi Abdulla Qodiriydan ta`lim olgani kabi Cho`lpon romanidan ham til va mahorat bobida ko`proq saboq oladilar.

Badiiy asarda lisoniy xususiyatlarning aks etishi tabiiy bir hodisa, chunki badiiy asar til vositalaridan foydalanib yuzaga keladi. Bunda ijodkorning leksik birliklardan foydalanish mahorati bir qadar nazardan o`tkaziladi. Biz bugun tahlil etayotganimiz Abdulhamid Cho`lponning “Kecha va kunduz” romanida minglab go`zal va betakror misollarga guvoh bo`lamiz.

Avvalo, leksik xususiyat deganda ijodkor portret, peyzaj, yoki boshqa bir tasvirlarda soʻz, ibora, maqol, tasviriy ifodalar, shuningdek, soʻzning koʻchma maʼnolari ifodalaridan foydalanishi tushuniladi. Shunday vositalardan biri Zebining mingboshiga berilishi aniq boʻlganda Oʻlmasjonni koʻrish uchun Saltanatlarnikida kechgacha qolib ketib qorongʻu tushgandagina keksa kampirning kuzatuvida uyiga joʻnayotganda yoʻlda Oʻlmasjonga duch kelib qolishadi, ammo ular soʻzlasha olishmaydi. Shundan soʻng ikkala yoshning qalbidagi kechinma quyidagicha berilgan:

“Ikkala yosh koʻngil qorongʻi muhitining ogʻir kishanlariga bogʻlangan holda noumid muhabbat bilan bir-birlarining hasratida entiqor ekan...”. (51,86)

Ushbu parchada muhitga nisbatan qorongʻi soʻzi ishlatilganki, endi qalbida muhabbat umidi uygʻonayotgan ikki yoshning pok, begʻubor sevgisi ayni shu muhit sabab gullay olmadi. Taqdir zanjirlari orqali bogʻlab tashlandi. Endi mana shu tutqunlik tufayli, samimiy kechinmalar, orzular boʻgʻiladi. Bavaqt nobud etiladi. Ijodkor bu oʻrinda yoshlarning fikri umuman inobatga olinmayotganligi. Inson erki muhit taʼsirida boʻgʻib qoʻyilayotganini tasvir etilgan. Yuqoridagi tasvirga inson ichki kechinmalari tasvirga nolingan boʻlsa, yanagi tasvirda tabiat tasviri orqali, hayotning va insonlarning ahvoli, turish-turmushi, ichki kechinmalari bilan uygʻun tarzda olib borilgan:

“Saraton yaqinlashganga oʻxshaydi. Oftob tandurini qizata tushdi. Kechagina koʻklarda qanot qoqib oʻynashdan tuganmas lazzat olgan qushlar koʻlankali shoxlarida oʻtirib olib, issiqdan jon saqlaydilar”. (51,103)

Havoning issiqligini tasvirlashda “oftob tandurini qizata tushdi” deya tasvir etadi. Oftobning tandiri esa insonlar, qushlar, jamiki jonzotlar yashab turgan bu olam edi. “Qushlarning jon saqlashi” deya berilgan iboradan ham juda oʻrinli foydalanilgan. Bunda nafaqat havo, balki davr muhiti ham xuddi shunday biqiq va dim edi.

Romanning boshqa bir o`rnida Eshon bobo Razzoq so`fini chaqirtirgandan keyin ona bola o`rtasidagi suhbatda ham leksik birliklarda bo`yoqdorlik juda kuchli:

“Qizning yuziga yoyilgan va brogan sari quyilmoqda bo`lgan quvnoqlik, qumga tushgan tomchi kabi, birdaniga yo`q bo`ldi: uning jiddiylashgan ko`zlariga endi tashvish ko`langalari cho`kkan edi”. (51,106)

Qahramonning quvonchini qumga tushgan tomchidek birdaniga yo`q bo`lib ketdi, deya ta`rif berganda Cho`lpon shoirona o`xshatish qiladi. Qumga tushgan tomchi uzoq tura olmaydi, u qumning bag`riga shishib bir zumda g`oyib bo`lgani kabi, Zebining ham quvonchi bir lahzagina uning yuziga aks etdi-yu, dugonasining yolchitib kutib ola olmasligi, ro`zg`orda hech narsa yo`qligi uni tashvishga soladi. Tashvishning soyasi yo`qligi hammaga ma`lum, lekin ijodkor so`zga jon bag`ishlab o`z qahramonining ichki tuyg`ularini betakror bo`yoqlarda tasvir etgan. Ayni shu holatni kitobxon his etishi uchun uni juda ta`sirchan, dilga yaqin bayon eta oladi.

Asarda Eshon maslahati bilan Razzoq so`fi qizini Akbarali ming boshiga unashadi. Onasi buni qizga aytmagani uchun Zebi otasining fe`li ayniganligiga yo`yadi. Ayni shu o`rinda ona- qizning kechinmalari go`zal satrlar ila ifoda etilgan.

“Otasini nonushtaga chaqirmoq uchun kirgan Zebiga Razzoq so`fi nimagadir:

- Choyingni hovliga chiqib ich! – deb buyurdi.

Bu buyruqqa na ona e`tiroz qildi van a qiz. Ayniqsa, Zebi butun bu narsalarni otasining fe`li ayniganidan ko`rardi. Onasining ko`zlarida shuncha iztiroblar qaynab toshgani holda yosh qizning soda ko`ngli ularni ko`rolmas edi. Onaning ko`ngli sir berkitish orqasida g`ashidan yorilay deganda, qizning ko`ngli dam O`lmasjonni, dam Saltanatxonni erkalatib o`ynardi. Hovuz bo`yida yana o`sha qo`shiq, yana o`sha yoqimli ovoz suvlarning jimjimasi ustida yo`rg`lardi”. (51,110)

Ushbu parchada bir o`rinda ikki ko`ngilning ichki tug`yonlari shunday mohirona aks etganki, ona o`z qiziga bo`lg`usi voqeani ayta olmay, yuragi qiynalayotganini sezdirmaslikka harakat qiladi. Qizining bir zum bo`lsa-da, baxtiyor yashashini istab turgan onda, Zebi shirin xayollar og`ushida qo`shiq kuylab kashta tikadi. Qo`shiq aytganda bu yoqimli ovoz suvlarning jimjimasi “ustida yo`rg`alardi”, iborasi juda go`zal topilma bo`lgan. Cho`lpon tabiatning ham, o`z qahramonining ham uning ovozini ham ayni damda mana shu ibora orqali go`zal va betakror ekanligini yuqori darajada aks ettira olgan.

Tabiat, inson, uning xislatlari hamohangligini ham juda ta`sirchan bera olgan. Yana “qizning ko`ngli dam O`lmasjonni, dam Saltanatxonni erkalatib o`ynar edi, debon jumlada ham juda kuchli bo`yoqdorlik bor. Qizning ko`ngli ularni erkalashi, nima bu? Aslida Zebining qalbi ular tomon oshiqar, ular haqida tinmay o`ylar, o`ylaganda esa qalbi sevinchga to`lar edi. Adib esa mana shu tasvirning ma`no bo`yog`ini bera oladigan, matndagi yukni ko`tara oladigan ko`ngil bilan erkalash” iborasidan o`rinli foydalangan.

Asarda ayni shu o`rinda Zebining kashta tikayotgani tasviri berilgan:

“...Yana o`sha kashtalarning, yana o`sha kular yuzli ipaklari ilang-bilang chiziq ustidan berib, kungiralarning shaklini qavortirardi”. (51,110)

Bu o`rinda yozuvchi qahramoni tikayotgan kashtaning juda go`zal ekanligini, kashta gulining yuzi kulishi iborasi orqali aks ettirgan, shu o`rinda so`zning ko`chma ma`nosi, ya`ni metaforik usuldan foydalanib, hayotiy jonlantirish orqali juda go`zal aks ettirgan.

Asar davomida Zebining to`yi uchun yuborilgan mol-davlatu, masaliqlardan gangigan Razzoq so`fining holati quyidagicha tasvirlanadi:

“Har haftada bir keladigan qo`y, un-guruchni tashimoqdan Razzoq so`fining qo`llari qabardi... Toza guruchlar bilan bo`rdoqi qo`ylarning polovlarini yemoqdan quyuq yog`lar medasiga urdi... Yog`liq qo`llarini arta bermoqdan uning eski bedana mahsisi oynaday yaltirab ketdi”. (51,111)

Keltirilgan parchadan ayonlanadiki, Razzoq soʻfi pul, mol-davlat qarshisida butunlay oʻzini yoʻqotib qoʻyadi. Shu oʻrinda yozuvchi Razzoq soʻfining farosatsiz bir harakatini oydinlashtirib oʻtadi. Bu uning osh yoki ovqat yegandan soʻng soʻfi qoʻlini albatta yetishga surtishi va buning natijasida yetishishning oynaday yaltirab ketganini aytib oʻtadiki, bu ibora orqali muallif oʻz qahramoni xarakteridagi ochkoʻzlib, nafsining quliga aylanishi kabi illatlarini, shuningdek farosatsizligini birgina ibora bagʻriga singdira olgan. Ayni shu oʻrinda adib bu mol-mulklilik qanday kelayotgani nimalar evaziga bunday noz-neʼmatlarga erishilayotganini ham goʻzal bir ibora vositasida yoritib bergan:

“Butun bularning orqasida ona bilan bolaning qaynoq koʻz yoshlari quyiladi. Butun bu noz-neʼmatlar yosh qizning koʻngil shishasini sindirish bahosiga tushgan edi”. (51,111)

Choʻlpon oʻz qahramoning qalbidagi iztiroblar darajasini berishda “koʻngil shishasini sindirish” iborasining boʻyoqdorligidan foydalanib qahramoni ichki kechinmalari, uning qay darajada eksizligi, boʻgʻiz bir jamiyatda maʼrifatu ilmdan yiroq, biqiq holatda, inson huquqlariga past nazar bilan qarash kabi illatlar oʻtkir qalam uchidan toʻkilgan mechi bois hech bir oʻquvchini befarq qoldirmaydi. Shu oʻrinda Choʻlpon ishlatgan ushbu ibora shuni anglatadiki yozuvchi mumtoz adabiyotning oʻtkir bilimdagi, juda chuqur oʻrganganligini koʻrsatadi. Chunki mumtoz adabiyotda koʻngil, shishaga, jonga, qadaxga kibslangan. Choʻlpon ishdagi mana shu unsurdan ham mohirona foydalangan. Bu esa muallif adabiyot, til va til namunalarining bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek adib qahramonlari qayerlik ekanligini ifodalashda va ularning maʼnaviyati darajasini koʻrsatishda shevaga xos soʻzlardan ham umunli foydalangan. Bunga misol qilib Zebi majburan mingboshiga uzatilgandan keyin Enaxon va Umrinisabibining suhbatidan bir lavha keltiramiz:

“Umrinisabibi yana ovozi pichirlash darajasiga tushirdi.

- Bilasizmi, aylanay, oq poshsho yetish qiron bilan urishayotgan emish... Hamma fuqaro qirilib tamom bo'lipti... Yurtida odam qolmapti. Bugun emas, ertaga mingboshlarning hammasini urushga olib ketarmish...
- Og`zingizga yog`, xolajon!
- Rost gap bu...Hakimjon aytipti... Mingboshining mirzasi emasmi? Til biladi u... gazet o`qiydi...
- Sizga kim aytdi?
- Bir joydan eshitib qoldim. Hakimjon borib yuradigan joydan. Siz, aylanay, Zebinisoga sal uchini chiqarib qo`ysangiz bo`ldi. U yog`ini o`zi eplayd... eslik qiz... Mingboshi urushga ketdimi, hamma qutiladi uning dastidan. Yovlashgan qiron juda kattayimish... Indamasdan kelib o`ldiradigan o`qi bormish... Osmondan qanot taqib kelib urisharmish..."(51,123)

Ushbu olingan parchada “yetti qiron”, “gazet”, “kattayimish” kabi so`zlar shevaga xos bo`lib, so`zlovchining juda ham oddiy, tor fikrlaydigan kishi ekanligini ham ko`rsata oladi.

Bundan keyingi suhbat jarayonida bunga yana bir karra guvoh bo`lamiz. Chunki qahramon jahon urushi ketayotgani, bunda millionlab odamlar ishtirok etayotganini hatto tasavvur ham qilmaydi. U hatto miltiq o`qini tasavvur eta olmaydi. Shuning uchun “indamay kelib o`tiradigan o`qi bor emish” deydi. Bundan tashqari samolyot nima ekanligiga fahmi yetmaydi va uni “Osmondan qanot taqib kelib urisharmish” deya gapirib beradi. Cho`lpon birgina mana shu ibora orqali millatini qay darajada ilmsizlik botqog`iga botib borayotganini yaqqol namoyon eta olgan.

Asarda Maryam va Miryoqub o`rtasida suhbat bo`lib o`tadi. Shunda muallif Miryoqub Maryamning sirlaridan voqif bo`lganidan so`ng deraza tokchasidan eski bir jurnal olib, undan tuya suratini topadi-da “Tuya ko`rdingmi? Yo`q” maqolini anglatmoqchi bo`lib, rasmni ko`rsatib “Видел? Нет?” shaklida tushuntirmoqchi bo`ladi. Ammo ayol bunga boshida tushunmaydi. Keyin Miryoqub barmog`ini labi ustiga qo`yib, o`z maqsadini shu ishora orqali

anglatadi. Shu o`rinda til bilan bog`liq uch hodisaga duch kelamiz. Bularning birinchisi maqol qo`llash, ikkinchisi varvarizmlardan foydalanish, uchinchi esa paralingvistik vositalar, ya`ni kishining turli harakatlar asosida o`z maqsadini bayon qila olish va suhbatdoshiga uqtira olishini ko`rish mumkin. Bu esa asarning badiiy quvvatini yanada oshirgan. Tilning yana bir vositasi borki, ayni shu lingvistik birlikni ham ``Kecha va kunduz``da ko`rish mumkin bo`ladi. Bu Miryoqub xarakterini ochib berishda, uning ichki monologi namoyon bo`ladi.

“Yulib tashladimi? Tag-tomiri bilan yula oldimi? Yo`q! bekor gap! Necha yillardan beri ildiz yoygan, shox tarqatgan, quchoqlab o`sgan narsani bir qarashda yuladigan kuch yo`q va topilmaydi! Uning ildizlari Miryoqubning badanida ham juda kuchli! Ana o`sha kuch emasmiki uni ketayotgan yo`lida birdaniga to`xtatdi. To`xtagan joyida bir o`y ostonasiga o`tirishga majbur qildi. “Itlik” bosh ko`tarib kelardi”.

Bu o`rinda qo`llangan vosita bu – vulgarizm bo`lib, u oddiy qilib aytganda so`kinish, qo`pol, dag`al so`zlardir. Olgan ushbu parchamizda ham qahramon ruhiyatidagi o`zgarishni muallif qahramonning o`z tilidan “itlik” deya ataydi. Zotan, bundanda o`rinli bir ta`rif yoki so`z qo`llash asar saviyasiga salbiy ta`sir etadi. Cho`lpon so`zni juda nozik his eta oladigan ijodkor ekanligini ayni o`rinda namoyish eta olgan.

Romanda muallif o`rni bilan o`sha davrda neologizm bo`lgan so`zlardan ham foydalana olgan. Bu to`ra va Miryoqub suhbatida yaqqol ko`zga tashlanadi. “To`ra jim bo`ldi. Miryoqub ham jim qolib, tikilgan edi. To`ra olis xayollarga ketib turib, boshini chayqadi. So`ngra boshini og`ir-og`ir tebratib turib, dedi”

- Xullasayn kalom, bu ulug` kema... bu ulug` kema... bu buyuk “imperiya” daxshatli to`lqinlar ichida zulmatga, belgisizlikka, yo`qlikka qarab ketayotir. Uni to`xtata oladigan va qutqarib keladigan hech bir kuch ko`rinmaydi... Balki, unday kuch aslida yo`qdir o`zi...
- Bir so`z aytdingiz, to`ra... “imperi”mi, nimaydi?
- Ha, imperiya, imperiya.” (51,148)

Mana shu o`rinda shu narsa ayonlashadiki, Miryoqub imperiya so`zini tushunmadi. Bu so`z yangi kirib kelayotganligi va ayni paytda o`zlashma so`z ekanligini ham ta`kidlab o`tish joiz. Chunki, bu so`z o`zlashma bo`lganligi uchun Miryoqub uning mohiyatiga tushunmay so`raganida, to`ra unga podshoning devordagi suratu-yu, o`z pagonini ko`rsatadi. Miryoqub esa bundan hech narsani anglay olmaydi. Shuning uchun beparvo “Ertani g`amini eshak yeydi”, deya javob beradi. Bu esa qahramonning biribchidan, hech narsani anglamagani, ikkinchidan, juda kalta o`ylashidan dalolat beradi.

Yana Miryoqub Maryamni olib ketish qaroriga kelganda, undan oldiga hech kimni kiritmaslikni so`raydi. Va muallif shu o`rinda so`zning ko`chma ma`nosi va ibora, ya`ni frazeologik birlikdan unumli foydalanadi:

“Miryoqub ayvonga chiqqach, ichkaridan kalitning shiqqilagani eshitildi. “Men uchun ochiladigan eshik boshqalar uchun yopiladi!” dedi u o`z-o`ziga. Xursand, ko`ngli ochilgan, allanechuk engillagan ko`zlari, yuzlari, butun borlig`i bilan kulchani holda ildam-ildam bosib, ko`chaga chiqdi”. (51,161)

Muallif ushbu parchada ham “ko`ngli ochilgan” iborasi orqali qahramonning mamnunligi, xursandchiligini ochib bergan. Shuningdek, “yuzlari, ko`zlari kulgan” deya ta`rif berarkan insonga xos bo`lgan kulish xususiyatini uning a`zolariga ko`chirish orqali qahramoni kayfiyatini yorqin bo`yoqlarda chizib bergan desak mubolag`a bo`lmas, chunki ayni o`rindagi lavhani o`qigan kitobxon quvonchini his qiladi emas, balki ko`z oldida o`sha surati joylanadi. Bir so`z bilan aytganda Cho`lpon so`zlar orqali nafaqat inson balki uning xissiyotlari suratini ham aniq o`quvchiga yuqumli qilib tasvirlaydi. Cho`lpon o`rni bilan vorvorizmlardan ham o`rinli foydalana olgan. Bunday misolni biz noib To`raning xotini va Miryoqub suhbatida aks etganini ko`rishimiz mumkin:

“ - Bilasizmi. Biz bunda ichishib o`tiribmiz. Xursandmiz. Yaxshi do`stlar to`plashganmiz. Fediya sho`rlik nima holdaykin? Bilasizmi, yuz ellikta soldat bilan, to`p-to`pxonalar bilan ketdi. Tog` odamlari juda mergan keladi. Mening Fediyam, siz bilmaysiz, juda dovyurak narsa. Soldatlardan oldinda o`zi chopib

ketadi... qilichini sug'irib! Birorta sortiya Kirgiz mergani otib qo'ymasin, deb qo'rqaman. Xotya satrlar uni yaxshi ko'rishadi..."

Muallif bu o'rinda o'z qahramoni millati o'zbek emasligini ham bildirib o'tgan. O'zbekcha gaplasha oladi, ammo fikrini ifodalashi ravon emas. Shuning uchun Cho'lpon qahramoni tilida "хотя" degan vorvorizmdan foydalangan. Bunda muallif har qancha o'zini madaniyatli tutmasin ma'naviy past ekanligini ham personaj tilidagi so'zlarda aks ettirgan.

Cho'lpon roman davomida monologlardan unumli foydalanib personajlar ruhiy kechinmasini ochib berishda juda chuqur yondashgan. bunday monologlarda muallif o'rni bilan taqlid so'zlardan, vulgarizmlardan ritorik so'roqlar, buyruq gaplardan foydalanish qahramon kechinmalarini ochiq-oydin rakurlarda namoyon eta olgan. Asardagi shunday o'rinlardan birini misol sifatida keltiramiz. Bunda Miryoqub o'z vijdoni oldida javob berishi lozim bo'lib qolgan, vijdoni oldida sud qilinayotgan o'rni juda ta'sirli chiqqan:

- "Haqqing bor, haqqing bor! Miryoqub, qancha balandparvoz bo'lgani bilan, o'z bo'yidan ortiq ko'rari olmaydi. Chunki u bir it! Olgan va ayanchli bir it! U o'z-o'zini goh arslon, goh qoplon rangiga, goh sher va go her bo'yoqlariga bo'yab ko'rsatadi. Faqat ohakka ag'anab, kaptarlar orasiga kirgach, yana o'z ovozi bilan, "g'o-og', g'o-g'a!"deb yuborgan go'ng qarg'a singari uning asli itligi barilla ko'rinib turadi. doim ko'rinib turadi". (51,169)

Mana shu o'rinda ijodkor inson hamma narsadan qochsa ham o'z vijdoni oldidagi so'roqdan qocha olmaydi. Uning aslida kim ekanligi vijdoniga xuddi ko'zgudagidek ayon. Shuning uvhun Miryoqubga murojaat qilayotganda bizda sening qalbingdan olingan kopya bor, deya aytadi. Inson o'zligidan bota olmaydi. Cho'lpon qahramoni tilidan o'z gunohlariga iqror qilinadiki, bu ham muallifning iqtidoridan darak beradi.

Umuman badiiy adabiyot til unsurlaridan sayqal topadi. So'z, ibora, maqol, ritorik so'roqlar, monolog, paralingvistik vositalar taqlid so'zlar, o'xshatishlar, ko'yingki, barcha, barchasi til-uslublari vositasida sayqal topadi. Lingvistik

vositalarning bo'yoqdorlik darajasini his qila olmagan ijodkor esa haqiqiy, ko'pchilikga yaqin asar yarata olmaydi. Negaki, har bir so'z hattoki, qo'shimchaning ham lingvistik jihatdan qo'llash o'rni bor. Cho'lpon esa o'z romanida uning har biridan o'rnida san'atkorona olgan. O'rni kelganda ibora, maqolva tasviriy ifodalardan foydalanish inson qalbidagi ko'rinmas torlarni chertib yuboradi. Qalbdagi mana shu torlarni junboshga keltirish uchun esa lingvistik birliklarni, avvalo, yaxshi tushunishi lozim.

Til birliklarining xususiyatlaridan unumli foydalanish ijodkorning bilim darajasi, dunyoqarashini belgilab beradi. Shu bilan birga so'z kuchi yordamida ijodkorlar dunyoni ko'zimizga jonli suratlarda namoyon etishadi.

Til bilan bog'liq xususiyatlarning badiiy asarda aks etishi tabiiy, chunki badiiy adabiyotda "so'z san'ati" deya ta'rif beriladi. Shunday ekan tilning barcha xususiyatlari har jihatdan badiiy asarlarda o'z aksini topadi. Hatto asarning nomlanishning o'zida ham antonimik so'zlardan foydalanilgan "Kecha va kunduz" roman nomidagi ushbu xususiyat ham til bilan bog'liq bo'lib, juda katta ma'no va g'oya tashiydi. Bunda har qanday qiyinchilik ortida, albatta, muvaffaqiyat quvonchi yotishi uqtiriladi. Bundan tashqari asarda tanlangan epigrof ham maqol janri bo'lib, "Himoya keldi, amal keldi" deb berilgan. Inson ko'zlagan maqsadiga erishish uchun harakatni o'z vaqtida amalga oshirmog'i lozim, degan insonning doim harakatda bo'lishni ta'kidlovchi maqol tanlangan. Buyuk Navoiy aytganidek, harakatda bo'lish insonning tiriklik belgisi, harakatsiz insonning esa murdadan farqi yo'q. Cho'lpon ham noziktab shoir va yozuvchi sifatida so'zning kuchi va sehrini his qila olgan ijodkor edi. U so'zlardan turli ma'nolar chiqara olgan, o'zi shuni his qilib turib, kitobxonga ham yuqtira olgan. Bir so'z bilan aytganda Cho'lponning so'z, ibora va boshqa lingvistik vositalarni erkalab qo'llay oladigan ijodkor deyish mumkin. Agar ijodkor taxallusidan kelib chiqadigan bo'lsak u tong yulduzi tong otayotganidan darak berib, shu mash'um kecha qo'ynida uxlab yotganlarni ko'z ochishga undadi. Ma'lumki, tilsimining qudratini teran tasavvur etish va bu qudratni tugal ishga solish uchun muntazam

mahorat va malaka talab qiladigan narsa tilning o'z mohiyatida mavjud. Til mohiyatan bitmas-tuganmas, cheksiz chegarasiz ifoda imkoniyatlarining jamlanmasidir.

Milliy jamiyat, umuminsoniy qadriyat va milliy o'zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy g'urur, iftixor, Vatanga teran muhabbat va istiqloлга adoqsiz sadoqat kabi ma'naviy kamolotning o'zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham atib bo'lmaydi. Shuning uchun ham allomalarimiz tilni mana shu mo'tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta'sirchan vositasi deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o'rinli foydalanmoq uchun, avvalo, insonda til tuyg'usi tarbiyasi yugal bo'lishi, ya'ni til mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy sezgi bilan ham idrok etish ustuvorlashishi lozim.

Til yetuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchidan, til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirishi vositasi bo'lsa, ikkinchidan, tilning o'zi go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi minglab chechaklar tilning mazkur har ikki jihatning biridan yoki har ikkisidan birday foydalanadilar va shu bilan kitobxon yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar.

Tilimiz cheksa ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va shunga ko'ra beqiyos darajada betakrordir. Mumtoz va bugungi kun adabiy asarlarni o'qirkanmiz, turli so'z o'yinlarini, oddiy odam nutqida topib aytilgan so'z yoki iboraning guvohi bo'larkanmiz, tilimizning turfa tovlanishlaridan, nafosatidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz.

3.2. Cho'lponning ekspressivlikni ta'minlashda jonlantirish badiiy vositasidan foydalanishdagi mahorati. ("Kecha va kunduz" romani misolida)

Ishimizning mazmuni shu tushuncha bilan bog'liq bo'lganligi uchun, dastlab, jonlantirish san'atiga bir oz to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Jonlantirish – keng ma'noda metaforaning bir ko'rinishi, jonsiz narsa-hodisalarga inson,

umuman, jonli mavjudotga xos sifatlarining berilishi. Shuningdek, jonivorlarga insonga xos sifatlarining berilishi ham jonlantirishning bir ko`rinishi sanaladi.

Jonlantirish badiiy asarda turli darajada voqe bo`ladi. Bulardan inson tafakkuriga xos analogiyalar asosida fikrlash bo`lib, til an`analari bilan bog`liq holda va muayyan g`oyaviy estetik maqsadini ko`zlab badiiy nutqda narsa-hodisalarga jonli mavjudotlarga xos xususiyatlar beriladi. Bu bilan ijodkor manzaraning jonli, ta`sirchan chiqishiga erishadi.

Muayyan bir maqsadni ko`zlagan holda narsa-buyumlar inson kabi harakatlantiradi. Ijodkorning bunday usuldan foydalanishidan maqsadi, ayrim inson tasavvur qilish yoki tushunishi qiyin bo`lgan tasvirlarda jonlantirishdan foydalanib, badiiy bo`yoqdorlikni oshiradi va shu orqali o`quvchiga kuchli ta`sir eta oladi. Jumladan:

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko`ngillarni qitiqlay boshladi.
Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi. (51,5)

Adib ushbu o`rinda bahor olib keladigan quvonchni, qay darajada shu ko`klamning orziqib kutilganligini va uning entikkan qalblarga zavq-shavq ulashni zo`r mahorat bilan tasvirlagan. Bunda adib insonda qitiqlash asosida yuzaga keladigan harakat orqali, ham quvonchni, ham turmush, tirikchilik harakatiga tusha boshlagan insonlar kechinmasini juda o`rinli va betakror tasvir etgan.

Yana tabiatning dildiragan tanasi-yozuvchi bunda harakatsiz, nimjon tana vositasida qishdan so`ng bahorda tabiatning jonlanishida hayot tirikligini badiiy ifoda eta olgan.

Muz tanda loyqalanib oqqan suvlarning g`amli yuzlari kuldi. (51,5)

Keltirilgan iqtibosdan shu narsa anglashiladiki, qishda sovuq havo tufayli muzlagan suvlik, bahor kelishi bilan kunlar isiy boshladimi sekin qorlar erib suv oqimi tezlasha boradi. Muz ostida sekin oqayotgan suv tasviri g`am-anduhga botgandek tasvirlansa, sekin quyosh taftida eriy boshlagan tuz parchalari inson kulgisiga o`xshatiladi. Bu bejiz emas, albatta, Cho`lpon ijodiga

yondashayotganimizda unga shoir ko`zi bilan ham qarash joiz, u badiiy, ya`ni nasriy asarda ham tabiat tasviriga juda katta o`rin beradi. Va mana shu tasvir orqali qahramonning ruhiy holatiga o`quvchini tayyorlab, ruhan illiqtirib boradi. Mana shunday tasvirlardan biri “Bultur ekilib, ko`p qoshlarni qoraytirgan o`sma ildizidan yana bosh ko`tarib chiqdi”. (51,5)

Bosh ko`tarmoq iborasi matn ichida hozir unmoq, ko`karmoq ma`nosida ishlatilayapti, ammo badiiy asar matni ekspressiv bo`yoqdorligi jihatidan mana shu iborani qabul qiladi. Yana ijodkor o`sma haqda gapirar ekan uni “Muloyim qo`llarda ivib, suvga aylangandan keyin go`zal ko`zlarning supasiga yonboshlashni muncha yaxshi ko`rar ekan bu ko`kat!” deya ta`rif beradi. O`sma faqat qoshga emas, ko`z ustiga ham qo`yilishni mana shunday chizgilarda e`tirof etadi. Yonboshlash insonga xos xususiyat, mana shu xususiyatni o`smaga ko`chiradi. Ijodkor tabiatdagi bunday tasvirlardan nasriy asar bo`lsa-da, shoirona ifoda etgan. Xuddi shunday tasvirlardan yana biri:

“Erkaklarning ngullik do`ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro`mol popuklari bilan hazillashib o`ynagan salqin shabada...ko`klam nash`asi bilan sho`xish qiladi”. (51,5)

Ushbu o`xshatishda metaforik ko`rinish bu “shabadaning hazillashishi”dir. Endi tasvir mohiyatiga e`tibor beradigan bo`lsak, shabada salqin, yoqimli, buning ustiga u go`zal bezak berilgan bo`lsa-da erkaklarning do`ppisiga tegmay, ayollarga, ularning kiyimlari, sochlari bilan hazillashishini yoqtiradi. Demak, yozuvchi ayol tasviri, uning go`zalligini qalamga olmoqchi. Va ayni tabiatning bir bo`lagi va go`zal, suluv farzandi haqida so`z yuritmoq uchun o`quvchiga tayyorlab boriyapti. Sir emaski, Mumtoz adabiyot namunalarida ham tabiat tasviriga to`xtalinib, avval, o`quvchining ruhiy olamini shu go`zallikka tayyorlash, undan so`ng voqealar ketma-ketligida mana shu tasvirdan unumli foydalanilgan. Bunga Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarini misol qilish mumkin. Cho`lpon ham mana shu g`ozal tasvirlardan so`ng o`zining soddagina, go`zal va betakror ovozga ega bo`lgan qahramoni Zebiniso tasviriga o`tadi.

Shunday tabiat go`zalligi bilan Zebining go`zalligini hamohanglikda yoritib beradi. Xuddi shunday misollardan:

“Zebi shu tabda yana qaytib qo`liga supurgi olishni istamasa-da, o`rtog`ining “bu enasining gapiga kirmas ekan”, degan o`yga borishini o`ylab, indamasdan supurgini qo`liga oldi va bir qo`lini bir tizzasiga qo`yib, sahi betini supura boshladi. Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda dasturxon boshida o`tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko`rganidan keyin o`rnidan turib, o`rtog`ining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

- O`rtoqjon, -dedi, -otam avradda o`tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endi yo`q kirib kelsa kerak. Xafa bo`lmang-a?”

Bu so`nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o`rtoq tutishgan yosh qizlardagina bo`ladi. “Xafa bo`lmang-a?” deb turgan vaqtida Zebining yuzini ko`rish kerak edi, bir qo`lida supurgi, bir qo`li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olinmagan, faqat bosh yuqori ko`tarilganu butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko`ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o`rab olib, aylantirib, uni quchadi. (51,9)

Bu ikki o`rtoqning soda va camimiyligini, qolaversa, Zebining o`rtog`im xafa bo`lib qolmadimi degan ichki ruhiy holati, otasining kechikayotganligi uchun xijolat tortishi va samimiyligini tasvirlarni, uning qalbidagi o`rtog`iga bo`lgan muhabbat, mehr-oqibati ayni shu so`zlar asosida xuddi rassomdek suratlantiradi.

Biz romanning birinchi sahifalaridanoq Zebi bilan uchrashamiz. Adib birinchi satrlardananoq mana shunday muhabbat bilan o`z qahramoni haqida qalam tebratgan. Shu tasvirdan boshlab Zebi ko`z o`ngimizda mukammal bir bahoriy bir tiniqlik sohibasi sifatida ko`rinadi. Cho`lpon asarning boshidan oxirigacha Zebi xarakteridagi samimiyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida ko`rsatadi. Uning tomirlarida navqironlik jo`sh uradi, ko`nglida esa tevarak-atrofni qurshab olganlarga, dugonalariga, bahorga, hamma-hamma narsaga muhabbat hokim!

U ham hayotning achchiq-chuchugini ko`rmagan, hali taqdirning ayovsiz zarbalariga duch kelmagan, hali yuraklarini zardobga to`ldiradigan alamlarni kechirmagan. Shuning uchun u hammaga soddaligini sof va astoydil, chinakkam muhabbat bilan qaradi.

Asardagi jonlantirishlardan yana biri Razzoq So`fining akasi bilan suhbatda aks etadi:

- Yerdan aziz hech narsa yo`q!

Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan naridagilar-hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan...

Rostmi?

So`fi eshitilar-eshtilmas kelib

- Rost... - dedi.

- Siz nega yerdan qochasiz?

So`fi bu to`g`ri savolga boshqa javob eplay olmadi.

- Yer qani menga? – dedi. – Bir shapaloq yeringiz bor, o`zingizga yetmaydi...

Akasi dadil javob berdi: javob berarkan, uning yuzlari kulgan, tishsiz-kemtik og`zi sevinch bilan ochilgan edi. (51,16)

Keltirilgan ushbu parchada “yuzlari kulchan” iborasiga to`xtaladigan bo`lsak, bunda insoniy xususiyat, inson a`zolariga ko`chirilyaptiki, bunda anglashiladiki, uning yuzi kuladi jumlasini orqali ijodkor, qahramonining ich-ichdan ukasini ko`ndira olganligi uchun xursandligini ekspressiv tarzda ochib beriyopti, bu esa hech bir o`quvchini e`tiborsiz qoldirmaydi. Holbuki, insonning yuzi kulmaydi, insonning o`zi kuladi. Mana shu holatni ijodkor yuzga ko`chirib badiiy go`zal tasvirga erisha olgan.

Nafaqat inson holatidagi tasvir, balki turmushdagi jihoz, predmet va narsalarga xos xususiyati ham jonlantirish orqali juda go`zal tasvirlagan. Yanagi misolda mana shunday holatlardan biri qalamga olinadi:

“Bular taraqqiyoq eshik ochib, shoshilib ko`chaga chiqqan vaqtlarida, paxta zavodining ingichka tovushli jing`irog`I soat o`n ikki bo`lganini bildirib

qichqirardi.” (38,22), yoki “Qor ostidan chiqqan yerlar, bahorning salqin havosi va yoqimli shabadasi ostida mudralib yotardilar. Oy hali chiqmagan; faqat kechaning qorong`isiga o`chakishgan sanoqsiz yulduzlar tepada turib mash`allarini yondirganlar, xuddi peshona oldida ko`ringan eng yorug` bir yulduz, piyoz to`g`rab yotgan kelinchakning ko`zlariday, pirpirab yonardi”. (51,23)

Keltirilgan ushbu iqtibosda yerning bahor havosi va shabadasi ostida mudralish keltirilayaptiki, bu insonga xos xususiyatlardan biri bo`lib, ayni paytda, shu holat yerga ko`chirib o`tkazilgan va bu badiiy asarning o`qitishligi, shuningdek, tasavvur hosil qilishni osonlashtiradi. Mash`ala yoqish bu ma`lum biror yonilg`I asosida yoqish mumkin, ammo yulduzlarning sekin tun qorong`usida aks etishini yozuvchi mana shu o`xshatish orqali qalbga yaqin, ko`ngil mexvaridan o`tkazib tasvirlaydiki, haqiqatda, birinchi misoldagi insonning uyqusirashi, bunda voqeylikni to`la his eta olmaydigan holati bo`lib, bu bahor kirib kelishi bilan yorning uyg`ona boshlashiga ko`chirilgan. Ikkinchi misolimizda esa yulduzlarning qorong`u kechada sekin asta yorishib, aks etish mana shunday jonlantirilgan bo`lsa, yana piyoz artayotgan kelinchakning ko`zlari yoshlanganda pirpirab to`liq ocha-olmaganidek, yulduzlarning tungi osmonda sekin nur taratib, bilinar-bilinmas yog`du sochishi mana shunday qalamga olingan. Bu esa ijodkorning iqtidori, qalamining o`tkirligi, hayotni juda chuqur tushuna olishdan dalolat beradi.

Asardagi yana bir holat bunda qizlar mehmonga ketayotganda. Tunda Zebidan qo`shiq kuylab berishni iltimos qilishadi. Zebi, avval, ko`nmaydi, ammo qizlar jo`rlikda aytamiz, deb bir-ikki kupletdan keyin sekin to`xtashadi. Zabi esa endi qo`shiq sehriga berilib ulgurgan edi. U davom etaveradi. Xuddi shu holat ijodkor tomonidan shunday qalamga olinadi. “Zotan, uning to`xtashini kim istar edi, deysiz? Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og`zidan chiqqan unlarni o`z qanotlarida sindirib, allakabilarga olib ketardilar”. (38,26)

Zebini hayotsevar qilgan omillardan birtasi shundaki, u noyob iste'dod egasi – uning qo'ng'iroqdek jarangdor ovozi bor, u qo'shiq kuylaganda, har qanday muz yurak eriydi, har qanday toshbag'ir odamda insoniy hislar uyg'onadi, insofsizlar insofni o'ylay boshlaydi, qalblar ishq nurlarga yo'g'riladi. Xullas, Zebida o'zbek ayoliga xos fazilatlar jamlangan. U poklik va tozalik, go'zallik va navqironlik timsoli. Muallif qahramonining fazilatlarini quruqdan-quruq maqtov bilan ochmaydi, uni ideallashtirish yo'lidan bormaydi. U Zebi xarakterini tasvirlashda biron nuqtada ham hayotiylik usulidan chekinmaydi, hamma o'rinda me'yorni saqlashga urinadi.

Mana shu o'rinda olgan iqtibosimizga qaytadigan bo'lsak, Zebining ovozi shuqadar yoqimli va sehrli ediki, hatto kechqurungi shabada ham o'zining qanotiga sindirib olib ketayotgan edi. Tabiiyki, shamol, shabada qanot bo'lmaydi, lekin ular esadi. Haqiqatda ular keng dalalardagina erkin esa oladi. Ijodkor mana shu tasvirning bo'yoqdorligini oshirishi uchun “dalalar quchog'i” va “shabada qanoti”dan unumli foydalangan. Bunda inson va qushlarga xos xususiyat shabada va dalalarga ko'chirilgan.

Mana endi mehmondorchilikdan so'ng, Zebining holati va undan keyingi holat tasvirlangan parchaga e'tibor qarataylik:

Shu topda, qishloqning darbada itlari avjga kelgan, har tomondan hurishlarini yuksaltirganlar; tor ko'chaning tugalishidagi soy hamma uxlab jim bo'lganda, haybatli ovozini boriga qo'yib yuborib, och yo'lbarsday “g'uv-g'uv” bo'kirardi”.

O'quvchiga ma'lumki, mehmondorchilikdan keyin hamma uxlab yotsa, bir yoqda Zebi, bir yoqda aravakash yigit muhabbat kengliklarida xayolning uchqur otida uchib yurar edilar. Ammo shundan keyingi tasvir, ya'ni shamolning och yo'lbarsday “g'uv-g'uv” bo'kirishi yoki itlarning avjga olib hurishlari Zebining keyingi hayotidagi noxushliklar haqidagi kichgina bashorat edi. Shamolning yo'lbarsga o'xshatilishi esa ayni shu ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Endi Zebining hayoti o'zi sezmagan holda, u istamagan tomonga o'zgarib boradi va ijodkor ayni shu voqealarga o'quvchini ruhan tayyorlab boradi. Va ayni sodir

bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarning shu tasvir bilan hamohanglikda tasvirlaydi. Kelgusi voqealarning mash'umligini o'quvchi qalbi va ongiga mana shu tarzda yetkaziladi.

Roman voqealari davomida Enaxon o'z mehmonlarini yaxshi, ya'ni ko'ngildagidek kuta olmaganligidan kelin oyisiga hasratlangano'rni bor. Shunda Enaxonning kelinoyisi tilidan yozuvchi shunday tasviriy vositani keltiradiki, bu jonlantirish Zebi obraziga, uning iste'dodiga berilgan yuqori bir baho edi. Quyida o'sha suhbatdan olingan parchani fikrimiz isboti sifatida keltirib o'tamiz:

O'z dardini onasiga aytib foyda olmagan, bir nima chiqmagandan keyin shu dardini kelin oyisiga aytadi.

-Shunday yaxshi narsalarki! Bularga qancha qilsangiz oz! Zebixonni qarang, Zebixonni! Kuzda biz borganimizda ko'rmagan edik-a?

-Otasi o'lgur, sovuq so'fi, javob bermagan ekan...

-Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning !...Ashula aytsa qulog'ing mast bo'lib, o'ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazzalik! Muncha ta'sirlik! (51 ,34)

Keltirgan iqtibosda “qulog'ini mast qilmoq”, shuningdek, “nafasining mazali” bo'lishi esa kutilmagan oxshatish edi. Mast bo'lish bu biror ichimlik vositasida yuz beradigan sarxushlik inson unda butun g'am-tashvishlarini bir oz muddatga unitadi. Ashula tinglaganda ham, agar u yoqimli bo'lsa inson ko'nglidagi dardni eritadi bir oz dunyo tashvishlaridan uzoqlashtiradi. Mazza qilib, rohatlanib tinglash jarayonini quloqni mast qilishi degan o'xshatishi vositasida betakror tasvir eta olgan. Nafasining mazaligi deganda esa dilga yaqin yoqimli ekanligini inson qalbiga yuqtirib qo'yadi.

Yanagi tasvirda Zebini, umuman mehmonlarini yelchitib kuta olmagan Enaxonga kelinoyisi mingboshining uy ichini taklif qilishni shundan so'ng ular o'z uylarida mehmon qilishlari mumkinligini maslahat solsa Enaxon ular bu bechora kambag'allarning dasturxonini pisand qilmasliklarini aytishadi. Shundan so'ng ikkalasi uyga kirganda Zebining qo'shiq kuylayotgani shunday kallamga oshnadi:

“Ikmalasi, yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining “Qora sochim” kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi”. (51 ,36)

Badiiy parchada ashulaning shirin-shirin quloqlaring qitiqlashi aytilmoqdaki, bu ashulaning, buning ustiga ovozning juda yoqimlili ta’sirchan bayon etilgan. Bunda qitiqlash insonga xos xususiyat bo’lib, shu xususiyat ashula ohangiga ko’chirilmoqda. Bu ijodkorning o’tkir tasvir egasi ekanligini namoyon etadi.

Keyingi qalamga olinadigan parchada Zebining mingboshining uyiga taklif etilishi va qo’shni ayol Umrinisabibi bilan Sultonxonning suhbatida qo’llangan metaforik ma’no ko’chishga misol ko’ramiz:

“Sultonxonning rangi o’cha boshlagan edi, ikki betidagi shapaloqday qizil yuziga so’lganlik yugurdi. Og’zi yarim ochilgan, ko’kragi bir yotib- bir turmoqda, darmoni tanidan uzoqlashib borardi. (51 ,44)

Keltirilgan parchada qahramonning o’z qilib qo’ygan ishi oqibatini o’ylaganda tushayotgan holati juda mahorat bilan chiziladi. “Yotib-turish” insonga xos xususiyat bo’ladiga bo’lsa, mana shu so’z insondagi ruhan bezovtalik, qalban notinchlikni anglatdi. Ayni insonning shu holatdagi tasvirini ifodalashda mana shuningdek, o’xshtishdan foydalanadi. Bu esa qalamkashning boy mahoratdan dalolat beradi.

Romandagi yana bir markaziy obrazlardan biri bu Miryoqibdir. Miryoqib ancha murakkab obraz. Miryoqib aslida savodsiz, gazetalardan bexabar, dunyo ishlariga ko’p ham qiziqavermaydigan, rus tilini ham tuzuk-chuqur bilmaydi. Lekin shunga qaramay, ishni ko’zini biladigan o’ta tadbirkor odam. Shuning uchun u “epaqa” degan laqab ortirgan. Quyida olingan parchada ham biz buning guvohi bo’lishimiz mumkin:

“Miryoqub akaning yurishi ko’p! U, aksari, piyoda yuradi, yutganida ham negadir shoshilib yuradi. “Assalomu alayku!”, deb dona-dona qilib salom besangiz, shoshilganidan bo’lsa kerak, “va-ss...”, debgina qo’yadi. Shu bilan

birga, siz tomonga bo`ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko`zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib yo`rg`alaganda ketadi...”. (51,60)

Keltirilgan iqtibosda “ko`zlarining kulimsirashi” degan ibora qo`llanilyaptiki, bunda insonga xos bo`lgan xususiyatlarning uning a`zosi harakatiga ko`chirilishi orqali hosil qilingan o`xshatishini ko`rish mumkin. Bu esa qahramonning ichki dunyosini ochib berishga qaratilgan nozik bir harakat edi.

Asardagi boshqa qahramonlar ham ishonadiki, Miryoqub aralashgan ish bitmay qolmaydi. Umumiy savodi chatoq, saviyasi past, fikrlash doirasi chagaralangan bo`lsa-da, Miryoqub qayerdan pul chiqarishni, qay yo`l bilan davlatiga qo`shishini yaxshi biladi. Adib esa mana shu xususiyatlari ochib berishga uning bir alik olishi orqali ochib bera olgan.

Cho`lpon tvositalardan salbiy jihatlarni yoritishda ham unumli foydalangan. Bunga misol qilib Miryoqub bilan Akbarali ming boshining shahardagi foximaxonaga brogan o`rnidagi lavha tasvirlarini misol qilib keltirishimiz mumkin:

“Bu daf`a mingboshi xona ichiga kirganidan keyin o`z ko`zlariga ishonolmadi. Xonalar yaxshilab tozalangan, devorlarda har xil gullarning va yalang`och xotinlarning suratlari osilgan, devorda ilkkagini o`ynatib, katta bir soat chiqqilamoqda, kunduz bo`lishiga qaramasdan, xulyorangli qalpoq ostida yorug` fanarlar yonib turardi.”. (51,126)

Parchadagi lavhada “likkagini o`ynatib, katta bir soat chiqqilamoqda” degan ibora keltirilganki, avvalo, o`ynash insonga xos xususiyat bo`lib, ayni shu xususiyatni soatga ko`chirib, ta`sirchan bir ifodaga erishgan. Shuningdek “soatning likkagi” deb ta`rif berayotib, u shu jumlada salbiy bo`yoqdorlikni yuklaganki, o`z o`zidan ayonlashadi, mingboshi ibrat bo`larli joyda emas. Ijodkor bu joining ta`rifini mana shu jumla orqali o`quvchi qalbiga yuqtira oladi.

Umuman olganda, nafaqat, Cho`lpon, balki haqiqiy ijodkor, inson qalbi va ongiga yeta oladigan darajada fikrlarini bayon qila olishini namoyon etsagina va

o`z g`oyalarini o`quvchi ko`ngli va qalbiga singdira olsagina, kitobxonni o`z qahramonlari bilan birga yashashga majbur eta olsa, ana shunda, aytmqchi bo`lgan fikrlari-yu, g`oyalarini, insonlarga yuqtirishi, ularning qalbi orqali ongiga singdira olishi mumkin. Cho`lpon ijodida mana shu ajib noziklik, boshqalarga o`xshamagan bir topilmalari borki, bu balki uning ham nosir, ham shoirligidadir. Cho`lpon ijodkor sifatida o`z qalbidagi dardu-armonini, orzu-istaklarini kitobxon qalbiga yuqtira oladi. Kitobxonni o`z qahramonlari bilan birga yashashga majbur etadi. Uning qahramonlari tirik bir inson, yonimizda bizda begona bo`lmagan jondoshimiz ekanligini hamisha his qilib yashaymiz.

3.3. Demak, jonlantirish bu- odamlarga xos bo`lgan xislatlarni jonsiz predmatlar, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabilarga ko`chirish orqali hosil

bo`ladigan tasvir usuli. Tabiat manzaralari, jonzotlar, hayotdagi turli buyumlar va tushunchalarni insonga xos bo`lgan xususiyatlar bilan jonlantirish orqali shoir yoki yozuvchi o`z asarida chiroyli va nafis obrazlilikka erishadi.

Biz yuqorida ingliz adibasi E.L.Voynichning ``So`na`` va o`zbek yozuvchisi A.Cho`lponning ``Kecha va kunduz`` romanlarida qo`llangan jonlantirish uslubiy vositasini tahlil qildik. Keling, endi bu ikki asarni taqqoslasak. Har ikkala yozuvchi roman tilini boyitish, uning ta`sirchanligini oshirish maqsadida mazkur vositadan unumli foydalangan. ``So`na``va ``Kecha va kunduz`` romanlarida jonlantirish tasviriy vositasidan foydalanishda quyidagi umumiylik, o`zhashliklarni kuzatish mumkin:

a) tabiat manzaralari, ya`ni peyzaj tasvirida:

``He had given up beside the Mediterranean, and was accustomed to blue ripples; but he had a positive passion for swiftly moving water, and the hurried rushing of the glacier stream delighted him beyond measure. [36,38]

``U O`rta dengiz yaqinida o`sgani uchun ko`zlari moviy to`lqinlarga o`rganib qolgan edi. Lekin u tezoqar daryolarni jon-dili bilan sevar va muz tog`lardan shiddat-la oqib tushuvchi suvlar uni o`zida yo`q sevintirardi.`` [38,16]

Voynich romanining bosh qahramoni Artur tabiatni shu qadar sevardiki, uning har bir jilvasidan zavqlanardi. Shiddat bolan oqib tushuvchi suv (the hurried rushing of the glacier stream) xuddi joni bordek uni sevintirardi (delighted him).

``Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko`ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi. ``[51,5]

Cho`lpon ushbu o`rinda bahor olib keladigan quvonchni, qay darajada shu ko`klamning orziqib kutilganligini va uning entikkan qalblarga zavq-shavq ulashni zo`r mahorat bilan tasvirlagan. Bunda adib insonda qitiqlash asosida yuzaga keladigan harakat orqali, ham quvonchni, ham turmush, tirikchilik harakatiga tusha boshlagan insonlar kechinmasini juda o`rinli va betakror tasvir etgan. Yana tabiatning dildiragan tanasi-yozuvchi bunda harakatsiz, nimjon tana

vositasida qishdan so`ng bahorda tabiatning jonlanishida hayot tirikligini badiiy ifoda eta olgan.

b) mavhum otlarni jonlantirishda:

``My son, if there is within you a new light, a dream of some great work to be accomplished for your fellow-man, a hope that shall lighten the burdens of the weary and oppressed, take heed how you deal with the most precious blessing of God.`` [36,61]

``O`g`lim, agar qalbingizni yangi bir nur yoritgan bo`lsa, agar qalbingizda og`a-inilaringiz baxti-saodati uchun ulug` ishlar qilish orzusi tug`ilgan bo`lsa, agar horigan-charchaganlar va ezilganlar yukini yengillashtishga umidvor bo`lsangiz, - o`ylab ko`ring: olloh-taoloning bebaho hadyasiga qaysi ko`z bilan qaraysiz?``

[38,40]

Voynich bu misolda orzu (dream), umid (hope) kabi mavhum otlarni jonlantirib, asar tilining yanada ekspressiv bo`lishini ta`minlagan.

``Ko`ngil, orzu, sevgi, sevinch...bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o`rab, uni aylantirib, uni quchadi.`` [51,9]

Cho`lpon bu gapda mavhum ob`yektlar sanalgan ko`ngil, orzu, sevgi, sevinch kabilarni jonlantirish orqali chiroyli obraz yarata olgan.

c) jonsiz narsalarni jonlantirishda:

``He had a sense of delight in the soft elasticity of the wet grass under his feet and in the shy, wondering eyes of the wild spring flowers by the roadside.`` [36,62]

``Oyoqlari ostidagi ho`l ko`katlarning yumshoqligidan va yo`l bo`yidagi yovvoyi bahor gullarining hurkayotganga o`xshab g`alati ko`ringanidan ichiga sig`may shodlanib bordi.`` [38,41]

Bu misolda Voynich bahor gullarini jonlantirib, ularda ``hayron boquvchi ko`zlar``ni mujassamlashtirgan (wondering eyes), va kitobxon ko`z oldida shu gullarning jonli tasvirini yarata olgan. Shu gapni:

``He was glad to see grass and flowers under his feet``, deb berish mumkin, ammo muallif bo`yoqdor so`zlardan va turli badiiy vositalardan foydalanib, asar tilini boyitishga harakat qilgan. Badiiy uslubda ijod qilish aynan shunday mahoratni, so`zlarni o`z o`rnida qo`llay olish, boshqalarnikiga o`xshamaydigan o`xshatish-u, jonlantirishlarni topa olishni talab qiladi. Bunda obraz yaratish alohida ahamiyatga ega. Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqi ham shunda ko`rinadi. Unda neytral so`zlardan ko`ra badiiy bo`yoqdor so`zlarga ko`proq murojaat qilinadi. Zero, adabiyot inson his-tuyg`ulari bilan chambarchas bog`liq.

``Onasining ko`zlarida shuncha iztiroblar qaynab toshgani holda yosh qizning soda ko`ngli ularni ko`rolmas edi. Onaning ko`ngli sir berkitish orqasida g`ashidan yorilay deganda, qizning ko`ngli dam O`lmasjonni, dam Saltanatxonni erkalatib o`ynardi. Hovuz bo`yida yana o`sha qo`shiq, yana o`sha yoqimli ovoz suvlarning jimjimasi ustida yo`rg`lard.`` (51,110)

Ushbu parchada Cho`lpon bir o`rinda ikki ko`ngilning ichki tug`yonlari shunday mohirona aks ettirganki, ona o`z qiziga bo`lg`usi voqeani ayta olmay, yuragi qiynalayotganini sezdirmaslikka harakat qiladi. Qizining bir zum bo`lsa-da, baxtiyor yashashini istab turgan onda, Zebi shirin xayollar og`ushida qo`shiq kuylab kashta tikadi. Qo`shiq aytganda bu yoqimli ovoz suvlarning jimjimasi “ustida yo`rg`alardi”, iborasi juda go`zal topilma bo`lgan. Cho`lpon tabiatning ham, o`z qahramonining ham, uning ovozini ham ayni damda mana shu ibora orqali go`zal va betakror ekanligini yuqori darajada aks ettira olgan.

d) qahramonlar ruhiyatini ochishda:

``A blind, senseless , wild-beast fury was beginning to stir within him like a live thing.``[36,76]

``Basir g`azab, xuddi joni bordek, ichida qimirladi.``[38,55]

Bu gap bilan Voynich Arturning g`azab otiga minganini ifodalagan. G`azabni basir deya sifatlab, ma`noni yanada kuchaytirgan. Shu vaziyatda qahramonining ichki ruhiyatini aks ettirishda jonlantirish uslubiy vositasi muallifga juda qo`l kelgan.

“Butun bularning orqasida ona bilan bolaning qaynoq ko`z yoshlari quyiladi. Butun bu noz-ne`matlar yosh qizning ko`ngil shishasini sindirish bahosiga tushgan edi”. (51,111)

Cho`lpon o`z qahramoning qalbidagi iztiroblar darajasini berishda “ko`ngil shishasini sindirish” iborasining bo`yoqdorligidan foydalanib qahramoni ichki kechinmalari, uning qay darajada erksizligi, bo`g`iz bir jamiyatda ma`rifatu ilmdan yiroq, biqiq holatda, inson huquqlariga past nazar bilan qarash kabi illatlar o`tkir qalam uchidan to`kilgan mechi bois hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Shu o`rinda Cho`lpon ishlatgan ushbu ibora shuni anglatadiki yozuvchi mumtoz adabiyotning o`tkir bilimdagi, juda chuqur o`rganganligini ko`rsatadi. Chunki mumtoz adabiyotda ko`ngil, shishaga, jonga, qadaxga qiyoslangan. Cho`lpon ishdagi mana shu unsurdan ham mohirona foydalangan. Bu esa muallif adabiyot va til namunalarining bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

``So`na`` va ``Kecha va kunduz`` romanlari bosh qahramonlari hayotida o`xshashlikni ko`rish mumkin. ``Sona``asaridagi Artur asar so`ngida otib tashlanadi. Uning otasi ham o`sha kuni vafot etadi. ``Kecha va kunduz`` Zebi esa Sibirga surgun qilinadi. Uning ham otasi vafot etib, onasi aqlu hushidan ayriladi. Demak, har ikkala asar fojia bilan yakun topadi.

Har bir yozuvchining uslubi o`ziga xos bo`lsa-da, ikki yozuvchi ijodida umumiylik yoki tafovutlarni topish mumkin. Biz yuqorida ingliz yozuvchisi E.L.Voynich va o`zbek yozuvchisi A.Cho`lpon romanlaridagi mushtarakliklarni tahlil qilib ko`rdik.

Xulosa.

Jonlantirish – keng ma'noda metaforaning bir ko'rinishi, jonsiz narsa-hodisalarga insonga xos sifatlarining berilishi.

Yozuvchi estetik maqsadni ko'zlab badiiy nutqda narsa-hodisalarda jonli mavjudotlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu bilan ijodkor manzaraning jonli, ta'sirchan chiqishiga erishadi.

Biz mazkur ishda ingliz yozuvchisi Etel Voynichning ``So`na`` va o'zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho'lponning ``Kecha va kunduz`` romanlari misolida uslubiy vositalar, jumladan jonlantirish badiiy vositasining ekspressivlikni oshirishdagi ahamiyatini tahlil qildik. Har ikkala yozuvchi 19-20-asrlarda yashagan. Ikkala romanda ham jonlantirish badiiy vositasidan peyzaj yaratishda ko`proq foydalanilgan.

Bundan tashqari, qahramonlar ruhiyati manzaralarini ochishda, ularning his-tuyg`ulari, kayfiyatini badiiy aks ettirishda jonlantirish vositasi qo`llangan. Mavhum otlar, jonsiz narsalarga nisbatan ishlatilgan mazkur uslubiy vosita har ikkala yozuvchi ijodida muhim o`rin egallaydi.

Mashhur ingliz adibasi E.L.Voynichning ``So`na`` romani yaratilganidan buyon bir asrdan ortiq vaqt o`tganiga qaramasdan, asar dramatic voqealarga boyligi, inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini aks ettirgani, insoniy iztiroblar tabiiy va smimiy tasvirlangani tufayli haligacha kitobxonlarni o`ziga jalb etadi. E.Voynich asarga badiiy bo`yoqdorlik berish, ekspressivlikni ifodalash, tabiiylikni yaratish, samimiylilikni saqlab qolish maqsadida barcha badiiy

vositalardan salbiy va ijobiy obrazlarni, voqea-hodisalarni, tabiat manzaralarini tasvirlashda katta mahorat bilan foydalangan.

O'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri, shoir, yozuvchi, ham jurnalist A.Cho'lponni esa so'z, ibora va badiiy-uslubiy vositalarni erkalab qo'llay oladigan ijodkor desak adashmaymiz. Uning biz yuqorida tahlil etgan ``Kecha va kunduz`` romanining ilk jumlaridanoq qo'llangan jonlantirish badiiy vositasini kuzatish mumkin.Cho'lpon ijodi haqida gap ketgfanda, uning shoir ham ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun bo'lsa kerak, u nasriy asarlarida tabiat tasviriga katta o'rin beradi. Va man shu tasvir orqali qahramoninig ruhiy holatiga kitobxonni tayyorlab boradi. Romanda eng ko'p qo'llangan uslubiy vositalardan biri jonlantirishdir. Roman ta'sirchanligini oshirishda, unga badiiy pafos berishda uning roli beqiyos.

Shunday qilib, mazkur magistrlik dissertatsiyasida ingliz yozuvchisi Etel Voynichning ``So'na`` v o'zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho'lponning ``Kecha va kunduz`` romanlaridagi jonlantirish badiiy vositasi qo'llangan misollar tahlil etilib, ular asnosida ingliz va o'zbek badiiy asarlarida jonlantirish uslubiy vositasining ekspressivlikni oshirishdagi mohiyati o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград, 1984.
2. Arnold Kettle. E.L. Voynich, a forgotten English novelist. <http://planetadisser.com/see/diss173491.html>.
3. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1996.
4. Baskakov.N.A, Saidov A.S, Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 1979.
5. Blevins P. Ethel Voynich.E.L.Voynich revolutionary, Novelist, Translator, Composer. <http://planetadisser.com/see/dis127921.html>
6. Энциклопедия, М.,1971.
7. Galperin I.R. An essay in Stylistic analysis. -Moscow, 1968.
8. Galperin I.R. Stylistics. - Moscow,1977.
9. Горький М. О литературе. -М.,1937.
10. Hakimova X. ``Shohi so`zana`` komediyasida personajlar tili. -O`zbek tili va adabiyoti.1959, 1-son, 62-65-betlar.
11. Jalolova L. Abdulla Qodiriy asarlaridagi jonlantirishning lingvoepik tahlili. -O`zbek tili va adabiyoti, 2000, 4-son. 33-35-b.
12. Karimov N. Cho`lpon. -Toshkent:Fan,1991.
13. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari. -Samarqand: SamDU nashri, 1994. 11-32-b.
14. Maltzev V.A. Essays on English stylistics. -Minsk,1984.
15. Mirtojiev M. O`zbek tilida polisemiya. -Toshkent,1975.
16. Mo`minov S. So`zlashish san`ati. -Farg`ona,1997.
17. Ne`matov H., Bozorov O. Til va nutq. -Toshkent,1995.
18. Ne`matov H., Rasulov R. O`zbek tili system leksikologiyasi asoslari. -Toshkent,1995.
19. Одинцов В.В. О языке художественной прозы. - М.: Высшая школа,1973. с. 20-87.
20. Пелевина Н.Ф. Стилистический анализ художественного текста. -Л.,1980.
21. Prokhorova V.I., Soshalskaya E.G. Oral practice through stylistic analysis.
22. Qilichev E.R. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -Toshkent:Fan,1982.
23. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. -Buxoro,2000.
24. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiy asoslari. -Buxoro, 2002.
25. Qilichev E.R. O`zbek tilining amaliy stilistikasi. -Toshkent, 1992.
26. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T.,1993.
27. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -Toshkent,1992.
28. Qo`ng`urov R. O`zbek tilining ifoda-tasvir vositalari. -Toshkent:Fan,1977. 9-81-b.
29. Qo`chqortoyev I.Q. Badiiy nutq stilistikasi. -Toshkent,1975.
30. Рахимов Н. Мастерство Садриддина Айни. -Тошкент,1972.
31. Разинская Н.М. Стилистика английской научной речи. -М.,1972.
32. Soshalskaya E.G., Prokhorova V.I. Stylistic analysis. -Moscow,1964.
33. Скребнев Ю.М. Очерк теории стилистики. -М.,1975.
34. Sultonova M. Peyzaj san`ati. -Toshkent:Fan,1983.38-81-b.
35. Виноградов В.В. Стиль Пушкина. -М., 1937.
36. Voynich E.L. The Gadfly. -Moscow, 1964.
37. Войнич Э. ``Овод``. - М: Художественная литература, 1978.
38. Войнич Э. ``Суна``. -Т.,1956.
39. Войнич Э.Л. Прерванная дружба. Сними обувь твою. -Т.: Укитувчи, 1986.
40. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. - М.,1961.
41. Yo`ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. -Samarqand:SamDU Nashri, 1982. 5-27-b.
42. Yo`ldoshev B. va boshqalar. Badiiy asar tili masalalari. -Navoiy DPI nashri, 2001, 7-11-b.
43. Yo`ldoshev M. Cho`lponning xalq iboralaridan foydalanishdagi mahorati. -O`zbek tili va adabiyoti, 1999, 6-son. 59-61-b.
44. Sharafiddinov O. Dovondagi o`ylar. -Т.:Ma`naviyat, 2004. 338-380-b.
45. Sharafiddinov O. Cho`lpon. -Т.:Cho`lpon,1991.
46. Sharafiddinov O. Cho`lponni anglash. Т.:Xazina, 1994.
47. Shoabdurahmonov Sh. Oybek romanlarining tili. -Sharq yulduzi,10-son, 1955. 106-116-b.
48. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -Т.,1980.
49. Shomaqsudov Sh. va boshqalar. O`zbek tili stilistikasi. -Т.,1983.
50. Шуманова Т. ``Этель Лилиан Войнич``. -М, 1985.
51. Cho`lpon A. Kecha va kunduz. -Toshkent, 2004.
52. Cho`lpon A. Adabiyot nadir. -Т.:O`qituvchi, 1994. 144-155-b.

53. Cho`lponning badiiy olami (to`plam). T: Fan, 1994.
54. www.google.com
55. www.yahoo.com
56. www.wikipedia.com

Lug`atlar:

1. Butayev Sh., Iriskulov A. English-Uzbek Uzbek-English dictionary. - T: Fan, 2009.
2. Colen Howlet. Oxford English-Russian dictionary. - Bishkek: Turkestan, 2008.
3. Rahmatullayev Sh. Frazeologik lug`at. - Toshkent, 1981.
4. Random House Webster`s College Dictionary. - Mc.Graw-Hill Edition, 1991.